

Mavzu: Amir Temur obrazini batal janrida tasvirlash

Reja:

Kirish.....2bet

I-BOB. O'quvchilarda, tasviriy san`atga bo`lgan qiziqishini, sanatga bo`lgan dunyoqarashini rivojlantirish

1.1. Maktabda tasviriy san`at darslarinig maqsad va vazifalari.....7bet

1.2. Tasviriy sana`at darslarining mazmuni13bet

1.3. Buyuk siymolarni tasvirlashda kompozitsiyaning o`rni19bet

II-BOB. Tasviriy san`at tur va janrlari

2.1 Janrlarni kuzatish va o`rganish.....28bet

2.2. Amir Temur buyuk siymo sifatida50bet

2.3. A.Temur obrazining izlanish eskizlari64bet

Xulosa.....69bet

Adabiyotlar ro`yxati.....72bet

Ilovalar.....74bet

Kirish.

Mavzuning dalzarbligi. Hozirgi davrda taraqqiyotimizning taqdiri ma'naviy jihatdan yetuk komil insonlar hal qiladi. Aql zakovat, ruxiy, ma'naviy komolot insofu diyonat mehr-oqibat bular ma'naviyatning asosiy fazilatlaridir.

Ana shunday fazilatlarni yoshlarimizda yanada shakillantirish olimlar, ziyolilar o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Bu borada jamiyatni yuksaltirish va yoshlarning istiqboli bilan bog'liq eng ulug'vor soxalardan biri sifatida qarab yosh avlodni ta'lim tarbiyasiga g'amxo'rlik qilinmoqda.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim tug'risida"gi Qonunining 3-moddasida ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy tadqiqoti soxasida ustivor ekanligi belgilab qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida esa o'quv tarbiya jarayoning barcha tamoillariga aloqador bo'lgan strategik maqsad va vazifalar aniq dasturlar majmuyasi, inson omiliga juda katta ahamiyat bergan.

Shuning uchun ham kelajakda buyuk taraqqiyotga ega, xuquqiy davlat qurishni maqsad qilgan vatanimiz yoshlarida ijodiy fikirlashni rivojlantirish ularni yangilik yaratishga bo'lgan xoxish va istaklarni imkon darajasiga ko'tarish ko'zlangan maqsad va ezgulik yo'lidagi ta'lim tizimni asosiy tadbirlaridan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni istiqbol g'oyasi asosida tarbiyalab, ulug' ajdodlarimizga munosib bo'lib voyaga yetishlari eng avvalo ularning bugungi kun talablariga mos qilib yetkazishga tasviriy sa'natning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu esa o'z navbatida umumiy o'rta maktablarning tasviriy sa'nat zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi.

Ajdodlarimizdan meros bo'lgan va rassomlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarni o'rganish, tasviriy sa'nat darslariga „Amir Temur obrazini batal janrida tasvirlash" mavzusida ishlangan asarlarni topish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Mavzuga oid manbalarni o'rganib tahlil qilar ekanmiz tasviriy san'at darslarida mavzuli rasm chizish va kompozitsion rasm chizishda dastlab ish olib borgan respublikamiz hamda xorij olimlaridan O.K.Aruhtin, G.V.Beda, N.N.Rastovsev, T.P.Kondratenko, R.Hasanov, I.Jilsovalarning tadqiqotlarini o'rgandik.

R.Hasanovning «Maktabda tasviriy sa'natni o'qitish metodikasi» (2004 y), A.Sulaymonov, N.Abdulaevning «Tasviriy sa'nat» 7-sinf. (2007y), S.Abdurasulov, N.Tolipov «Rangtasvir», R.Hasanovning «Tasviriy sa'nat asoslari» (2008 y), R.Hasanovning «Tasviriy sa'natni o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar» (2006 y). kabi qator kitoblarida mavzu asosida rasm chizishning turli muammolari aks ettirilgan.

Rassomlardan juda ko'plari bu mavzuga yaqin mavzularda ishlar bajarishgan. Rus rassomlaridan I.I.Levitan, M.V.Nesterov, I.E.Grabar, A.A.Rilov, K.F.YUon, M.S.Saryan, A.A.Plastov, O.M.Zardaryan kabi rassomlar bahor mavzusida katta ishlarni amalga oshirishgan.

O'zbekistonlik rassomlardan U.Tansikboev, R.Axmedov, X.Raxmonov, A.Mirzaev, N.Karaxan, Zommer, Bure, Taldikin, Titovasiyan, A.Muminov kabilar yorqin mavzularda asarlar yaratishgan.

Ammo yuqoridagi manbalarni tahlil qilish orqali aniqlandiki, maktab tasviriy sa'nat darslarida „Amir Temur obrazini batal janrida tasvirlash” mavzusida ishlangan asarlarni badiiy idrok etish, tavsiflash usullar orqali tadqiqot ishlari aloxida bajarilmagan.

SHuning uchun ham bu muammoni bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri deb olib, bitiruv ishimni maktab tasviriy san'at darslarida «Amir Temur obrazini batal janrida tasvirlash» mavzusida ishlangan asarlarning tavsifi ko'rinishida olishni lozim topdim.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Maktab tasviriy san'at darslarining „Amir Temur obrazini batal janrida tasvirlash» mavzusida ishlangan asarlarni tavsiflashni o'rganish metodikasini takomillashtirish.

Ishning vazifalari: Ta'lim jarayonida batal janriga oid rassomlar asarlarini aniqlash;

-maktab tasviriy san'at darslarida mavzu asosida rasm chizishning o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish;

-mavzuli rasm chizish muammolari va zaruratini belgilash;

-mavzuli rasm chizishning o'ziga xosligini tavsiflash;

-maktab tasviriy san'at darslarida „Amir Temur obrazini batal janrida tasvirlash mavzusidagi rassomlar asarlarini o'rganish;

-maktab tasviriy san'at darslarida mavzu asosida ishlangan asarlar tavsiflanishi metodikasini takomillashtirish;

-maktab tasviriy san'at darslarida ishlangan mavzu asosidagi asarlarning tahliliy natijalarini berish.

Bitiruv malakaviy ishining obekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at darslari jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarini tashkil etish mazmuni va samarali metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari –O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida”gi qonun, „Kadrlar tayorlash milliy dasturi”, „Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umum milliy” dasturi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat ta'im standartlari va me'yoriy hujjatlar.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari- Pedagogika, psixologiya fanlarni o'rganish orqali tasviriy san'atga oid adabiyotlarni tahlil etish, o'quv rejalari va boshqa pedagogik hujjatlarni tahlil qilish, mavzuga oid umumiy pedagogik va metodli adabiyotlarni tahlil etish, kuzatish, rasm ishlash.

Batal janriga oid yaratilgan rassomlarning asarlarini tahlil etish.

Tadqiqotning umumiy farazi- Tasviriy san'at darslari jarayonida batal janriga oid yaratilgan rassomlarning asarlaridan foydalanib borilganda dars samarali bulishi mumkin. Agar,

-maktab ta'lim jarayonida batal janriga oid rassomlar asarlari aniqlansa;

-maktab tasviriy san'at darslarida mavzu asosida rasm chizishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilsa;

-mavzuli rasim chizish muammolari va zarurati belgilansa;

-mavzuli rasm chizishning o'ziga xosligini tavsiflansa;

-maktab tasviriy sa'nat darslarida „Batal janri mavzusidagi rassomlar asarlari o'rganilsa;

-maktab tasviriy san'at darslarida mavzu asosida ishlangan asarlar tavsiflanishi metodikasi takomillashtirilsa;

-maktab tasviriy sa'nat darslarida ishlangan mavzu asosidagi asarlarning tahliliy natijalarini berib borilsa.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliyot ahamiyati: Mazkur malakaviy bitiruv ish o'quvchilarni tasviriy sa'natga oid rassom asarlarini badiiy taxlili, o'rganilgan natijalarning umumiy ta'lim maktablarida ishlangan metodikadan foydalanishi, nazariy bilim va amaliy ko'nikma olish imkoniyatlar darajasi kengaytirib tasviriy san'at darslarida qo'llashi mumkinligidadir. Tasviriy san'at fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishi, ijodiy fikrlash qobiliyatlari, kompazitsion va asarlarni mustaqil tahlil qilishga doir bilimlarni oshirishi hamda natijaviy xulosalaridan maktab, kollej o'quv maskanlarining tasviriy san'at darslarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning yangiligi: Umumiy ta'lim maktablarining tasviriy sa'nat darslari jarayonida rassomlar yaratgan asarlarni badiiy taxlil qilingani, ularni tavsiflanganligi, dars jarayoniga olib kirilgani.

Bitiruv malakaviy ishining tajriba sinov ishlari – Buxoro shahar 34-maktabda amaliyot davri va G'ijduvon tumanidagi 39- maktabning tasviriy san'at darslarida tashkil etildi va o'tkazildi.

Qo'llanish sohasi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarning tasviriy san'at darajalarida qo'llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishnig tarkiba va xajmi: Bitiruv malakaviy ishi ikki bob, olti band, umumiy xulosa, foydalanigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I-BOB. O'quvchilarda, tasviriy san`atga bo'lgan qiziqishini, sanatga bo'lgan dunyoqarashini rivojlantirish

1.1. Maktabda tasviriy san`at darslarinig maqsad va vazifalari

Umumiy o`ra ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Tasviriy san`at o`quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san`at asarlari bilan muzey, ko`rgazmalar va boshqa joylar bilan tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O`quvchilar o`zlarining kelajak hayotlarida ma`lum miqdorda rasm ishlashlariga to`g`ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me`morlar uchungina emas, u o`qituvchilar, injinerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Maktablar o`z nomiga ko`ra umumiy o`rta ta`lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlaridan umumiy, elementar bilim va ko`nikmalar berishni vazifa qilib qo`yadi. Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, umumiy o`rta ta`lim maktablari rassomlarni tayorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug`ullanishni nazarda tutmaydi.

Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to`garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o`quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o`rta ta`lim maktablarida haddan ziyod bolalarni qiynab qo`yadigan, ortiqcha zo`riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to`g`ri emas.

Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarining vazifalari haqida to`xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo`lish mumkin.

1. Tasviriy san`at darslarining o`ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`, soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me`morchilik san`at asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish; san`atga nisbatan qiziqish uyg`otish uni qadrlashga, sevishga o`rgatish.

2. Tasviriy san`at darslarining qo`shimcha vazifalari, ular; borliqni, hayotni bilishga ko`maklashish; milliy g`urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo`llash.

Tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to`xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o`qitiladigan deyarli barcha o`quv predmetlari bilan bog`lanadi va ular yuzasidan materiallarni o`zlashtirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa u o`qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san`at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo`naltirilgan asosiy o`quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

- o`quvchilarning tabiat, san`at va hayotdagi go`zalliklarni idrok etishga o`rgatish:
- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish

qobiliyati, haqiqiy go`zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;

- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish:
- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his- tuyg`u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rol o`ynaydi. Dekorativ kompazitsiya darslarida o`quvchilar naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi go`zallikni his qiladilar va o`zlari ham shunday kompazitsiyalar tuzishga harakat qiladilar.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo`laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to`lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil pardozi, bahorgi va kuzgi manzaralarning chiroyi, majnuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarning kechki miltllab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday his tuyg`uning o`sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolarning faoliyatlarida obrazli iboralarining, ya`ni “xush bichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi. O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolarga ko`rsatish orqali yosh barglarni rangi och-yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg`irdan so`ng o`simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo`ygandek ko`rinishi, ulardagi yomg`ir donalarining kumushdek yaltirab ko`rinishini ta`kidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg`sh ranglarining oltin tusga kirganligini, to`kilgan barglarining shildirab “gaplashishi” obrazli ko`rinishda ifodalanaadi.

Bolalar o'z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so'zsiz tasvirlanuvchilarning o'lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proporsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jihatidan o'ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qayosiy tomondan chiroyli ko'rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimada ekanligi haqida o'ylaydilar. O'quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o'ylar ekanlar, o'qituvchi o'z e'tiborini ularning tushinchasiga mos bo'lgan voqea va hodisalarning go'zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go'zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak-atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o'rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, vatanga muhabbat, mehnatga ishtiyoq his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Tasviriy san'at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o'lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o'rganadilar va ularni o'z ishlarida tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo'ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san'atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlagan ilyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o'tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O'sha davrdagi binolar, o'simliklar, hayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ma'lumki bolalar, tarixiy, batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, xalqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko'pgina bilimlarga ege bo'ladilar.

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida, qo'yiladigan topshiriqlar o'quvchilarni birdan-bir va betakror o'z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga

yo'llaydi. Bolalar o`quv topshiriqlarini yechishda o`zlarini ijodkor bo`lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma`lum bo`lgan yo`ldan muammoni tez va oson hal qilib qo`yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas yechimlar orqali ularning ijodkorlik va hayolotlarini, me`yor va uyg`unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada, ma`lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko`p jihatdan mana shunday kishilarga bog`liqdir. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko`zda tutilmagan har qanday vaziyatlardan muammoni tez va oson yechimini topa oladigan kishilar xalqimizni taraqqiyotini yanggi bosqichlarga ko`taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g`oyalar va tasavvurlarni vujudsa keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o`ziga xoslikni ro`yobga chiqishiga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchunguna emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injinermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Tasviriy san`at o`quv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o`stirish, borliqni ko`ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma`lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig`ini ko`z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og`iz v.b. a`zolar orqali o`zlashtiradi. Bundan ko`rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko`z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg`ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san`atshunoslik asoslari mashg`ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bundan darslarda o`quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go`zalligini kuzatadilar hamda ularni o`z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Maslan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshdilar, ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarning joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xotirani ayniqsa, ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o'lchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, xalqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligi- ning shohidi bo'lamiz.

Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini,

O`zbekistonning rango-rang go`zal manzaralarini, o`zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san`at asarlari mavjud. Ularni o`rganish jarayonida bolalar san`atining qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklahnib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib borishni, o`zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o`rgatish kerak. Bu vazifa o`quvchilarning tasviriy san`at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

O`quvchi maktab binosiga, uning yonidagi hovlisiga, o`yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagi go`zallikni his etishi, umuman maktabning qiyo-fasi undan o`zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o`ylab, chiroyli qilib bezatilgan va alohida e'tibor bilan qarab turiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo`lakcha va gulzorlar, maktab hovlisiga kiraverishdagi memorial taxta, kosmosni zabt etish, mehnat, harbiy jasorat ko`rsatgan o`g`lonlarimiz kabi mavzulardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan panolar va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida mazkur maktabga xos badiiy bezash uslubi, turli xildagi go`zal partretlar ko`zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Maktab binosining kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, prezident burchagi, o`quvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar ko`zga tashlanib turishi kerak. Imkoni bo`lsa, mehnatda ibrat kursatgan ota-onalarning rasmlari qo`yilgan stend tayyorlash ham maqsadga muvofiq.

1.2. Tasviriy sana`at darslarining mazmuni

Hozirda har bir fan bo`yicha, shu qatori badiiy-estetik turkumdagi fanlardan davlat ta`lim standartlarining yaratilishi, uni hukumat tomonidan tasdiqlanishi katta

ilmiy va ahamiyatga ega bo`lgan voqeadir. Mazkur standartlar O`zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo`lib, u respublikamiz maktablarida ta`limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Standart tomonidan qo`yilgan talablarni to`g`ri va benuqson bajarish uchun imkon berishi bilan bir qatorda, amaliyotda qo`llanib kelayotgan dastur, darslik va metodik qo`llanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish imkonini ham beradi. Shuningdek, u maktablarda ta`lim ishlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar uchun ham asosiy hujjat vasifasini o`taydi.

Davlat standartiga ko`ra tasviriy san`at ta`limi mazmuni boshlang`ich sinflarda quyidagi to`rt yo`nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish- yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash.
4. Kompazitsion faoliyat.

Beshinchi – ettinchi sinflarda esa u quyidagi uch yo`nalishda o`z aksimi topgan:

1. San`atshunoslik asoslari.
2. Naturaga qarab tasvirlash.
3. Kompazitsion faoliyat.

Mazkur yo`nalishlar bo`yicha tasviriy san`at o`quv predmetini o`qitishda har bir o`qituvchi asosiy e`tiborni nimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo`ladi. Tasviriy san`atni o`qitishda o`qituvchining e`tibor berishi lozim bo`lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat :

1. O`quvchilarni borliqdagi (tevarak-atrofdagi) va san`at asarlaridagi nafosatni ko`rishga, idrok etishga va undan zavqlanishga hamda qadrlashni o`rgatish :

2. Bolalarni ijobiy, abstrakt, mantiqiy fikrlashga, ayniqsa ijodiy qobili- yatlari va fantaziyalarini o`stirishga yo`naltirish :
3. Tasviriy, amaliy, me`morchilik san`atlari yuzasidan nazariy, biroq umumiy, elementlar bilimlar berish.
4. O`quvchilarga kuzatuvchanlik, ko`z xotirasi, chamalash, fazoviy tasavvur kabi shaxs uchun muhim bo`lgan sifatlarni o`stirish.
5. Rasm va naqsh, haykal ishlash yuzasidan tasviriy malakalarini o`stirish.
6. Estetik his-hayajonni tarbiyalash va rivojlantirish.
7. San`atga qiziqishini o`stirish va muhabbatni tarbiyalash.

Bu vazifalar maktabda tasviriy san`at darsini olib boruvchi har bir o`qituvchini mutaxassis bo`lishligini talab etadi. Chunki standart mazmuni, mutaxassis o`qituvchilar uchun mo`ljallab tuzilgan.

Tasviriy san`at ta`limi davlat standarti san`atning uch turi; tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari mazmunini aks ettirgan bo`lib, u avvalo milliy o`zbek san`atini, uning badiiy an`analarini, ayrim mashhur o`zbek tasviriy, amaliy me`morchilik san`atlari ustalarining hayoti va ijodini, O`zbekistonda san`atning bu turi rivij topgan markazlarni, O`zbekistondagi yirik san`at muzeylarini bilish tasviriy san`at o`quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san`at vositasida o`quvchilarga badiiy ta`lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o`zbek san`atini chet el va jahonning hozirgi zamon ilg`or san`atiga qaraganda kengroq va chuqurroq o`rgatishdan maqsad har bir o`zbek o`quvchisi o`z xalqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san`atini ham nisbatan kengroq bilishga erishishdir. Milliy san`at ta`lim mazmuning poydevori bo`lishi lozim.

Ularni o`rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo`la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o`ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqa olmaydilar. Ayniqsa yoshlarimiz qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston me`morchiligi, Afg`oniston, Iroq, Turkiya miniatyura rangtasvir asarlari,

Evropada Uyg`onish davri tasviriy san`ati, rivojlangan G`arb mamlakatlarining hozirgi zamon tasviriy va me`morchilik san`ati namunalarini o`rganmasdan turib madaniylashgan shaxs bo`lishi mumkin emas.

Davlat ta`lim standartlari talablarini faqat o`quv rejalarida ajratilgan vaqt hajmida muvofaqiyatli bajarib bo`lmaydi.

Chunki yuqorida qayd qilinganidek, ta`lim mazmuniga doir o`quv-metodik majmualar, moddiy texnikaviy asos, yuqori malakali o`qituvchilarning yetishmasligi, mavjud muammoni birmuncha murakkablashtiradi. Bu esa o`quvchilarni darsdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishni samarali shakllari va yo`llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Mazkur muammo bevosita o`quvchilarning mustaqil ishlari uchun tegishli adabiyotlar, xrestomatik materiallar, moddiy - texnikaviy materiallar, o`quv va metodik yo`l-yo`riqlarni ishlab chiqish bilan bog`langan. Hatto, bu masalada ota-onalarning vazifalari, ish mazmuni haqida o`ylab ko`rish, ularga ma`lum yo`l-yo`riq va tavsiyalar berish foydadan holi emas.

Ma`lumki, bolalarning ta`lim standartlari asosida olgan bilim va malakalarini qanday o`zlashtirganlik darajasini ham tekshirib boriladi. Bu esa standartni sinflar bo`yicha ishlab chiqish lozimligini taqazo etadi.

Davlat ta`lim standartlarida tasviriy san`at ta`limi mazmuniga bo`lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O`qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o`qituvchi bu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim. Biroq ta`lim mazmunini yuqori darajada olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo`yish, ularni qiynash ham mumkin emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, maktablarimiz nomi umumiy o`rta ta`lim maktab deb ataladi. Demak maktablarimizda umumiy, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim.

Davlat ta`lim standartlari bo`yicha yettinchi snifni bitiruvchi o`quvchilar quyidagilarni bilishlari lozim:

Tasviriy san`at yuzasidan;

- rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – molbert, etyudnik, xolst, mo`yqalam, mastexin, bo`yoqlar, (yog`li, akvarel, guash, v.b.) pastel, sous, uqol, sangina v.b;
- haykaltaroshlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – dastgoh, bolg`a, stek, loy, tosh, yog`och, v.b;
- haykaltaroshlikda ishlatiladigan ayrim atamalarni - dastgohli haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik, plastik haykaltaroshlik, istirohat-bog` haykaltaroshligi, real haykaltaroshlik, dekarativ haykaltaroshlik, rel`ef, gorel`ef, barel`ef;
- grafikachi rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini ; rangtasvirda ishlatiladigan atamalarni (natura, fon, perspektiva, chiziqli perspektiva, rang perspektivasi, havo perspektivasi, ufq chizig`i) eskiz, yorug` soua, blik, refleks, shaxsiy soya, tushyvchi soya, janr, kompazitsiya, reproduksiya, avto- portret, frezka, mozaika, vitraj, dastgohli rangtasvir, minatyura rangtasviri, monu- mental rangtasviri, dekarativ rangtasvir, qoralama, ranglama, etyud, original, slayd, kolorit, gamma, mumtoz san`at;
- ishlatiladigan asosiy atamalarni gravyura, limogrvyura, litografiya, ksilo-grafiya, estamp, gazeta jurnal grafikasi, karikatura, plakat, zarhal harf, bosh bezak, yakuniy bezak zarvaraq, ilyusrtatsya, etiketka, upakovka;
- O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi rangtasvir va haykaltaroshlik namunalarini;
- O`zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san`atini;
- Tasviriy san`atining janrlarini- manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, portret, afsonaviy, animal, marina;
- rang nomlarini – bargikaram, gulnor, nilgun, siybob, malla, sadaf, lojuvard, shingob, novvoti, axmar, to`tiyo, firuza, novshadil, to`tigiyo, nilobi, tilla hal, kumush xil;
- O`zbekiston va jahonning dunyoga mashhur 5-6 rassomning hayoti va ijodini;

- rangtasvir, haykaltaroshlikda, grafikada ijod qiluvchi 50-60 rassom, haykaltarosh, grafiklarning ismi va familiyasi hamda ularning asarlarini;

- tasviriy san`atdagi asosiy oqimlarini;
- Sharq miniatyura rangtasviri maktablarini ;
- Movaraunnahr miniatyura rangtasviri maktablarini ;

- O`zbekiston va jahonning mashhur tasviriy san`at muzeylarini.
Amaliy-bezak san`ati yuzasidan :

Amaliy-bezak san`ati ustalarining ish qurollari va ularning ishlatadigan materiallarini ;

- amaliy-bezak san`atida ishlatiladigan ayrim atamalarni – naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`makorligi, misgarlik, kashtachilik, sopolsozlik, zardo`zlik, ko`pbarg, chinnigul, gullola, bodomgul, marg`ula, gulsafsar, qo`shband, stilizatsiya, islmiy, girix, guligirix, nomoyon, ochiq naqshlar, cheksiz naqshlar ;

- amaliy bezak san`atida ijod qiluvchi mashhur 10-15 ustalarining familjalari va ismlari;

- Jahondagi mashhur 3-4 amaliy san`at ustasining hayoti va ijodini ;
- O`zbekistonda xalq amaliy bezak san`ati rivoj topgan markazlarni ;
me`morchilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari va materiallarni ;
- me`morchilikda ishlatiladigan ayrim atamalarni – memor, jome, minora, rovoq, mezana, ark, gumbaz, maket, muqarnas, navo, koshin, maqbara, mexrob, peshtoq, poydevor, vassa (toqi), poyustun, exrom, order, gotika, romantizm, barakko, klasit-sizim, renesans, registon, interer, eksterer ;
O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi me`morchilik obidalarini – Afrosiob, Varaxsha, Bolalik tepa, Tuproqqal`a v.b.;
- O`zbekistonning IX-XIX asr va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini;
- Jahonning qadimgi va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini ;
- Jahondagi mashhur 2-3 me`morning hayoti va ijodini ;

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifalaridan yana biri, tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma`lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqdar, ranglar, o`lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

1.3. Buyuk siymolarni tasvirlashda kompozitsiyaning o`rni

XIX asrning ikkinchi yarmida portret san`ati borasida katta yutuqlar qo`lga kiritiladi. Bu davrga kelib rassomlar ijodida zamonning mashhur kishilari portretlari bilan bir qatorda ishchilar, revolyutsion kayfiyatdagi ziyolilar obrazi o`z ifodasini topa boshladi. V.A. Serovning (1865-1911) "Ermolova portreti", Nikolay Aleksandrovich Yaroshenkoning (1846-1898) "Kochegar", N.A. Kasatkinning (1859-1930) "Smena", "Shaxtyor ayol" kabi asarlari bunga misol bo`la oladi. Bu davrda haqiqiy rus milliy manzara rangtasviri maydonga keldi. Manzarachi rassomlar rus o`lkasining go`zalligi, bepoyonligini ko`rsatish orqali kishilarda vatanparvarlik hislarini ustirishga, oddiy tabiat ko`rinishidagi go`zallikni to`laqonli ifodalashga harakat qildilar. Tabiatning turli holatlarini (salqin, nam havoli tabiat, quyoshli kun va xokazolarni) real tasvirladilar. Aleksey Kondratevich Savrasov (1850-1897) shunday birinchi rassomlardandir. Uning "Qora qargalar uchib kelishdi" deb nomlangan suratida qish qaytib, tabiatning jonlanishi ishonarli va jonli talqin etilgan. Shu davrda yashagan Ivan Ivanovich Shishkin (1832-1898), Fedor Aleksandrovich Vasilev (1850-1873), Vasiliy Dmitrevich Polenov (1844-1927) kabi asarlari bunga misol bo`la oladi. Bu davrda haqiqiy rus milliy manzara rangtasviri maydonga keldi. Manzarachi rassomlar rus o`lkasining go`zalligi, bepoyonligini ko`rsatish orqali kishilarda vatanparvarlik hislarini o`stirishga, oddiy tabiat ko`rinishidagi go`zallikni to`laqonli ifodalashga harakat qiladilar. Tabiatning turli holatlarini (salqin, nam havoli tabiat, quyoshli kun va hokazolarni) real

tasvirladilar. Shu davrda yashagan Ivan Ivanovich Shishkin (1832-1898), Fedor Aleksandrovich Vasilev (1850-1873), Vasiliy Dmitrevich Polenov (1844-1927) kabi rassomlar ham rus manzara rangtasvirining xaqiqiy namunalarini yaratib qoldirdilar. Ularning asarlarida Rossiya tabiatining go`zalligi va bepanligi realistik san`at tilida kuylanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan yirik rus rassomi I.I. Levitanning mavzusi ham rus tabiatini kuylashga qaratilgan. U o`z asarlarida tabiat go`zalligi va ulugvorligini ko`rsatish bilan birga, asarlarini davr kishilarining ruhi bilan to`ldirishga, o`zining hayot to`g`risidagi falsafiy fikrlarini bayon etishga harakat qildi. Uning "Vladimirka", "Qabr ustida", "Abadiy sukunat" kabi asarlari shunday asarlardandir.

XX asr boshlarida avangard rangtasvirida ko`pgina yo`nalishlar (abstraksionizm, andegraund, kubizm, fovizm, fo`turizm, ekspressionizm va boshqalar)paydo bo`ladi. Bu yo`nalishlar tasviriy ifodaviylikdan voz kechib, rassomning dunyoga shaxsiy munosabatini, rangning emotsionalligi va shartlilikini, shakl geometriyasi, dekorativligini faol aks ettirdi. Keyinchalik XX asrning 20 va 30 yillarida avangard yo`nalishda syurrealizm yunalishi paydo bo`ldi.Syurrealizm frantsuzcha so`z bo`lib, realizmdan yuqori degan ma`noni bildiradi. Syurrealistlarning asarlarida mistik g`oyalar voqelikni o`ta illyuzion-naturalistik tasvirlanishi bilan bir qatorda uning ko`rinishini kishi aqliga to`g`ri kelmaydigan darajada buzib ko`rsatilgandek tuyuladi. S. Dali bu oqimning yirik vakilidir. Uning "O`lik shahar " deb nomlangan asari shu oqimning o`ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Uning "Atom-Ledi" ("Atom malikasi"), "Venera Miloskaya", "Kechki ovqat", "Dollar tantanasi", "Qullar bozori", "Pol Elyuarning portreti" kabi asarlari mavjud.

XX asr boshidagi yana bir yo`nalishlardan biri bu kubizmdir. Bu yo`nalish hajmli shakllarning geometrik strukturasi aniqlashtirish, real predmetlarni ichki tuzilishi bilan bog`liq holda qismlarga ajratish orqali yangi shakl tuzishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Kubizm nomi predmetlarning tashqi ko`rinishi shar, konus, prizma, kubga o`xshab tasvirlanishidan kelib chiqqan. Frantso`z san`atida

kubizm 1900-1910 yillarda kelib chiqqan. Uning asoschisi P.Pikasso ("Avin`on qizlari", 1907) hisoblanadi. Kubizm tarixi uch davrga bo`linadi. Bular sezann, analitik va sintetik davrlar hisoblanadi. Sezann davri kartinalarida shakl geometriyasi dunyo predmetliligini, shakllar geometriyasini ta`kidlaydi. Xuddi og`ir hajmli predmetlar xolst tekisligida turganday, rang esa predmet qirralarini aniqlashtirib beradi. (P.Pikasso "Uch ayol", 1909 y; J.Brak "Estak", 1908 yil). Keyingi analitik davr san`atida predmetlar bir-biridan ajralib turgan, tekislik burchagida to`dashuvchi va mayda qirralarga bo`lingan holda tasvirlanadi. Bitta tasvirning o`zi turli tomondan va har hil rakursda tuziladi. Bu shakllar, tekislik va hajmlarni ritmik o`yiniga olib keldi. Tasvir xuddi xolstda suzib yurgandek taassurot qoldiradi. (P.Pikasso "A. Vollar", 1910 y).

Oxirgi sintetik davrda dekorativlikka amal qilinadi. Kartina go`zal rangli, tekis pannoga aylanadi.

P.Pikasso "Gitara va skripkalar", 1913 y. ; J. Brak "Gitarali ayol", 1913 y.). asar yaratishdan asosan kollajdan foydalanilada. Ob`ekt turli - tuman fragmentlar va belgilar, so`z, raqam, nota, gazeta qirqimlari va rangli qog`ozlar, sxematik rasmlar va bo`yoq mazoklaridan to`planadi. Tasvirlarda perspektiva va hajmlardan voz kechilgani bilan real hajmli konstruksiyalar xolst tekisligiga joylashtiriladi. Shu bilan birga figuralarni deformatsiyalab, geometrik shakllarning kubli xaykali paydo bo`ladi.

Kubizm - predmetlarning ichki, falsafiy mohiyatini yangi vositalar orqali ochishni, reallikni bilishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. U realizmdan voz kechib, standart go`zallikni keltirib chikardi. P. Pikasso kartinalarida kubizm davrida ulkan, yemirilayotgan dunyoning tragik obrazi yaratiladi.

O`sha davr san`at oqimlaridan biri bu - abstrakttsionizmdir. Bu oqim butunlay realizmni inkor etadi. Abstrakt so`zi lotincha bo`lib, mavhum degan tushunchani anglatadi. Abstraktlash narsa, voqea, hodisalarning mavxum tomonlarini aniqlash, ularning juz`iy tomonlari asosida fikr yuritishdir. Abstrakttsionizm voqelikni o`ziga o`hshatishdan voz kechish va uning o`rnini shu

voqelik to`g`risida tasavvur bera oladigan shakl, rang dog`lari, chiziqlar orqali tasvirlashga da`vat etadi. Bu oqim nazariyotchilari esa rassom o`z asarlari orqali tomoshabinga biror-bir g`oya, fikr, his-tuygu yoki kayfiyat berishi shart emas, tomoshabin rassom tasvirlangan turli rang dog`lari, chiziqlar, hajmlardan o`ziga kerak bo`lgan faraziy-optik tasavvur qilishi kerak deb ta`lim beradilar. Abstrakt tasviriy usul ham ijod doirasida mo`tlaqo zararsizdir. Chunki har bir usulning ham kamchiligi yoki yutug`i bo`lishi mumkin. Shunga asosan, unga yutuqlari ma`nosida yondoshsak, bu sohada ham tomoshabinni hayajonga soladigan, fikrini uyg`otadigan o`rinlarni topsak ajab emas. Ba`zan hayotda abstrakt usulning zaruratini ham sezishimiz mumkin. Jumladan, to`qimachilikda, ya`ni gazlamaga gul solishda, bezashda abstraktsionizm - erkin san`at oqimi kul keladi. Tasviriy san`atning bu turi haqida juda ko`p fikrlar, muloxazalar aytib kelinadi. Hatto ularning qay biri haq, qay biri nohaqligini ajratish qiyin. Ba`zida shunday vaziyat vujudga keladiki, badiiy bezak faqat "abstraktsiya" san`ati yechimida o`zining tugal darajasiga erishadi.

XXI asrda rangtasvir asarlarini yaratishda yangi texnik vositalar va yangi bo`yoqlar, yangi fikr, obraz, shakllarni izlash jarayoni davom etadi, bu esa tasviriy san`atda yangi oqim, yo`nalishlar paydo bo`lishiga shubhasiz turtki bo`ladi.

Rangtasvir janrlari. Rangtasvir texnikasi asrlar davomida muntazam ravishda mukammallasha borgan. Rangtasvirchilarni turli-tuman syujetlar borgan sari e`tiborini tortgan. Bu o`zgarishlarning barchasi XVII asrga kelib faqat rangtasvirdagina emas, balki grafika va haykaltaroshlikda ham turli janrlarni paydo bo`lishiga olib keldi. Rangtasvir janrlarining quyidagi turlari mavjud: portret, natyurmort, manzara, animal, tarixiy, maishiy, afsonaviy va batal janri va boshqalar. Quyida biz bu janrlarning paydo bo`lishi va rivojlanish tarixiga to`xtalib o`tamiz.

Portret - bitta odam yoki odamlar guruhining tasvirlari bilan farq qiluvchi tasviriy san`at janrlaridan biridir. Portretda rassom insonning tashqi, individual

o`xshashligini ko`rsatibgina qolmasdan, inson xarakteri, uning ma`naviy dunyosini ham ochib bera oladi.

Portretning turli ko`rinishlari mavjud. Ularga belgacha bo`lgan portret, byust (xaykaltaroshlikda), bor buyi bilan chizilgan portret, odamlar guruhi portreti, interer yoki manzara fonidagi portretlar kiradi. Tasvirlash xarakteriga ko`ra portret ikkita asosiy guruhga ajratiladi: ya`ni odamning bor bo`yi bilan chizilgan (otda, o`tirgan yoki turgan holatda) portreti (parad portreti) va beligacha, yelkagacha chizilgan portreti.

Bitta xolstda chizilgan tasvirlarning soniga qarab portretlar ikki kishilik va guruhiy portretlarga ham ajratiladi. Turli xolstga chizilgan, lekin kompozitsiyasi, formati va koloritga ko`ra bir-biriga mos bo`lgan portretlar juft portretlar deyiladi. Ko`pincha bunday portretlarda er-xotinlar tasvirlanadi. Ko`pincha portretlar yaxlit ansamblni - portretlar galereyasini tashkil qiladi.

Portretda odam qandaydir, allegorik, mifologik, tarixiy, teatrlashtirilgan yoki adabiy personaj holatida tasvirlangan bo`lsa bunday portretlarga kostyumlashtirilgan portretlar deyiladi. Bu portretlarni nomlashda ko`pincha "ko`rinishda" yoki "obrazda" so`zlari qo`shiladi (masalan, Yekaterina II Minerva ko`rinishida, A.Abdullayevning "Abror Hidoyatov Otello rovida"). Portretlar o`lchamiga ko`ra ham ajratiladi, masalan miniatyura portretlari. Bundan tashqari rassomlar o`zlarining portretlari - avtoportretlarni ham ishlashadi. Portretlar faqatgina modelning individual belgilarinigina emas, balki shu odam yashagan davr ruhini ham o`zida aks ettiradi.

Portret san`ati bir necha ming yillik tarixga ega. Qadimgi Misrda ham haykaltaroshlar odamning tashqi ko`rinishiga juda o`xshagan tasvirlar yaratishgan. Chunki ularning fikricha odam dunyodan o`tganidan so`ng uning ruhi shu yaratilgan o`xshash tasvirlarga ko`chishar ekan. I-III asrlarda enkaustika texnikasida (mum rangtasviri) yaratilgan fayyum portretlari ham shu maqsadga xizmat qilgan.

Ular o`zlarining yorqin hayotiy obrazlilik, shaklining hajmliligi bilan ajralib turadi. Qadimgi Gretsiyada shoirlar, faylasuflar va boshqa mashhur kishilar portretlarini ishlash urf bo`lgan. Qadimgi Rim portret xaykaltaroshligiga xos bo`lgan asarlar o`zlarining haqqoniyligi va aniq psixologik xarakterini ochib berishi bilan mashhur bo`lgan. Ular insonning individual belgilarini aks ettirgan.

Insonning yuzini haykaltaroshlikda yoki rangtasvirda tasvirlash barcha davrlarda ham rassomlarni o`ziga jalb etgan. Portret janri ayniqsa Uyg`onish davrida gullab yashnadi. Uyg`onish davri rassomlari portret obrazlarining mazmunini chuqurlashtiradi, ularni intellekt, qalb uyg`unligi va ko`pincha ichki drammatizm bilan tasvirlaydi.

XVII asrga kelib intim portretlari birinchi planga chiqadi. O`sha davrning buyuk rassomlari- Rembrand, Van Reyn, F. Gals, Van Deyk, D.Velaskes oddiy insonlarni tasvirlab, ulardagi insonparvarlik va ko`ngil boyligini ko`rsata olishgan.

Rossiyada portret janri XVIII asr boshlaridan rivojlana boshladi. O`sha davr rassomlari F.Rokotov, D.Levitskiy, V.Borovikovskiylar buyuk insonlarning portretlarini yaratganlar. Ayniqsa ayol obrazlari juda maftunkor va go`zal, lirika bilan sug`orilgan.

Sayyor rassomlardan V.Perov, M.Kramskoy, I.Repin buyuk zamondoshlarining portretlarini yaratishgan. Portretda tasvirlanayotgan odamlarning individual va tipik belgilari, ma`naviy-ruhiy olami ularning yuzi, holati va hatti-harakatlari orqali ochib berilgan.

XX asrda portret o`zida turli-tuman, qarama-qarshi tendentsiyalarni yorqin realistik, individual xarakteristika va modelning abstrakt, ekspressiv deformatsiyasini (P.Pikasso, A.Modilyani, E.A. Burdel, S.Konenkov, M.Nesterov, P.Korin Rossiyada) yaratadi.

Portretlar bizga faqat turli davrlarda yashab o`tgan insonlarni aks ettirib beribgina qolmay, balki rassomning tasvirlanayotgan insonga bo`lgan munosabatini va dunyoni qanday qabul qilganini ham aks ettiradi. Portret janri O`zbekiston rangtasvirchilarining kuchli jixatlaridan biri hisoblanadi.

O`zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib portretnavis-rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A.Abdullayev, R.Ahmedov, R.Choriyev, T.Oganesov, V.Burmakin kabi portret ustalari jahonda keng tan olinganligi e`tirof etiladi. Mustaqillikning ijobiy ta`siri ularoq, san`atning turli yo`nalish va uslublarida erkin ijodga yo`l ochildi. Jumladan portret janrida ham. Buning natijasida portret zamonaviy badiiy jarayonida yetakchi bo`lib qoldi. Respublikamizning yetakchi badiiy oliygohi K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti aynan, realistik maktab asosida o`quv mashg`ulotlari olib boriladi. Bu esa rangtasvirning realistik janrida ijod etgan o`tmish ijodkorlarimizning boy merosini tan olinganligi, shuningdek, jahon san`ati ilg`or tajribasini chuqur o`rganishdan dalolat berib, bo`tin dunyoda avangard yo`nalish bilan bir qatorda, aynan, realistik yo`nalish rivojiga e`tibor bilan qaralganligini ko`p jihatdan namoyon etadi.

1990 yillarda o`zbek rangtasvirida portret janrining asoschisi, yetakchi portretnavis, akademik A.Abdullayev ham ijodiy faoliyatini davom ettirdi. Bo`tin umri davomida u iste`dodli va ma`naviy go`zal insonlarga hurmatini saqlab qoldi. Musavvir mo`yqalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqur ma`naviy dunyosini akslantiruvchi, rassom bilan portret kahramoni va portret bilan tamoshabin o`rtasidagi haqiqiy va ochiq munosabatni taqozo etuvchi manbadir. 1999 yilda A.Abdullayevning 1984 yilda yaratilgan mashhur avtoportretini turli davr va halqlarga mansub buyuk rassomlar avtoportretlari saqlanayotgan dunyoning yirik to`plami, Uffitsidagi (Italiya) kartina galeriyasiga berilishi O`zbekiston san`ati uchun olamshumul voqea bo`ldi. Yaqin davr (2001) da esa musavvir "Ofarin" respublika sovrinining "San`atga baxshida umr" nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Akademik R. Ahmedov o`z portretlarida epik kenglik va teranlikka erishadi. Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloq kishilari bo`lib, aynan, ularda musavvir donishmanlikni, ma`naviy poqlikni, yuksak ahloqiy qoidalarni gavdalandiradi. ("Jizzaxlik ayol", 1992; "Nigina" 1993).

Zamondoshlar obrazlari akademik R.Choriyevni ham qiziqtirgan va o`ziga jalb etgan. Ko`p sonli ijodiy safarlar natijasida, musavvirning butun boshli portretlar galereyasi vujudga keladi. Ular orasida "Boysunlik qariya", (1996), "Sayroblik go`zal" (1997) singari o`z halqining eng yaxshi ma`naviy-axloqiy fazilatlarini tarannum etuvchi murakkab kompozitsion yechimdagi portretlari sanab o`tiladi. Rangtasvirchi R. Choriyevning kuchli jihati shundaki, u doimo naturadan ishlaydi. Ajoyib rangtasvirchi A.Ikromjonovning ilk ishlarida realistik asos kuchli ta`sir ko`rsatadi. Uning portretlari yuksak maxorat va diqqat bilan ishlanganligi, bo`yoqlarning fakturali qo`yilishi, naturani. Hatto fotosuratgacha tahlil etib chizilganligi, shuningdek, obrazning ruhiy to`laqonligi ("Malika portreti" (1993)) bilan ajralib turadi.

O`z ohanglari va mo`yqalamiga ishonch bilan yondasha olgan R.Xudayberganovning portretlari ham kishini befarq qoldirmaydi ("Xojar xola", 1999). Avvalgi ustalar uslubini qo`llagan holda musavvir hech qanday yordamchi vositalarsiz, to`q fonda portretlar yaratadi-ki, ular qahramon kiyofasini yanada mukammalroq chiqishida yetakchilik qiladi. Uning ajoyib badiiy asarlaridan biri "Navro`z 2001" ko`rgazmasida namoyish etilgan "Bastakor R.Abdullayev portreti"dir. 1990 yillarda portret janrida B.Jalolov faol ijod qildi. Shuni ta`kidlash joizki, realistik chizmalar yaratishda u mislsiz darajaga erishadiki, bu borada unga hech kim tenglasholmaydi. Oxirgi o`n yillikda yaratilgan "Saudiya Arabiston qiroli Araviy Fahd ibn Abdul Aziz" (1992), "Akademik S.Azimov portreti" (1998) va boshqa polotnolarni musavvirning o`zbek rangtasvirchilar orasida dunyo talablari darajasida yaratgan asarlari sirasiga qo`shish mumkin.

S.Rahmatov shunday rassomlar sirasiga kiradiki, uning ijodida portret asosiy o`rin egallaydi. Oxirgi o`n yilliklarda yaratgan eng yaxshi portretlari qatorida "Yunus Rajabiy portreti" (1993), "GFRning O`zbekistondagi elchisi G.Kun portreti" (1999) alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillar ko`rgazmalarda O`zbekistonning mashhur rangtasvirchi rassomi V.Burmakin portretlari munosib joy oldi. Lekin, musavvirning avvalgi

ishlariga qiyoslangan tarzda, 90-yillarda yaratgan portretlarini bir muncha sust ekanligi tanqidchilar tomonidan ta`kidlanadi.

Onalar va bolalar yili munosabati bilan tashkil etilgan "Qo`li guldir o`zbek ayolin" ko`rgazmasiga bir qator ayol portretchi rassomlar: A.Mamatova "Yulduz Usmonova portreti", Sh.Abdullayevaning "O`zbek madonnasi", M.Shuvayevaning "Lola" portreti, Z.Sharipovaning "Avtoportret"lari namoyish etildi. V.Shevchenko O`zbekistonning chegara himoyachilari turkum - I.Ibrohimov, Sh.Rasulov, R.Shonazarovlar portretlarini yaratadi.

Portretchi rassomlar sonini ta`kidlab o`tganlar bilan chegaralab bo`lmaydi. Ular qatorida o`z matolarida zamondoshlarimiz obrazlarini muxrlangan Y.Tursunnazarov, B.Salomov, I.Baxromov, Ch.Bekmirov, M.Nuriddinov, O.Bakirov, B.Nazarov va boshqalarni sanab o`tish lozim.

II. 606. Tasviriy san'at tur va janrlari

2.1 Janrlarni kuzatish va o'rganish

Tasviriy san'at taraqqiyoti, uning nazariy asoslarini shakllanishi jarayoni ibtidoiy jamoa davridan boshlab nihoyatda uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ushbu soha taraqqiyoti ayrim davlatlar bilan chegaralanib qolmasdan, yer sharining barcha qit'alarida, barcha davrlarda izchil rivojlanib bordi. Bu borada san'atshunos va tarixchilar tomonidan nihoyatda ulkan va boy meros to'plangan.

Ma'lumki, san'atning turlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularning eng asosiylari sifatida adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy bezak, sirk, televideniya, tasviriy san'at kabilarni alohida e'tirof etish mumkin.

"Tasviriy" atamasi "tasvirlash" so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq, tosh, gips, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materiallar yordamida har xil timsollarning va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi .

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o'rgatishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar tabiat hodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, san'at ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaganlar. Ayni paytda tasviriy san'at asarlari kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham egadar. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotlarida ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko'rib esa ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko'rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo'lishga intiladilar.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san'at asarlarini tomosha qilganda, o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar

hayoti, urf-odatlari bilan tanishadilar, tasavvurga ega bo'ladilar (1-rasm). Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar shunday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, xarakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadilar va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar.

Natyurmort janri-buyumlarning tinch hayotini, ularning o'ziga xos bo'lgan portretini rassomlar natyurmortda tasvirlaydilar. Natyurmort - tasviriy san'atning bir janri yoki bu janrda ishlangan asardir. Tasvir ob'ekti hisoblangan kuyilmaning o'zi ham natyurmort hisoblanadi. U faqat jonsiz predmetlardagina emas, balki tabiat shakllaridan ham iborat bo'ladi. Shuning uchun ham ingliz tili mamlakatlarda qabul kilingan still life yoki nemischa stilleben nomi - "Tinch hayot" ma'nosini beradi.

Natyurmort san'ati janr sifatida Gollandiya XVII asr boshlarida kelib chikkan. Mashhur golland natyurmortlarida hayotning kuvonchlari ochib beriladi.

Ularni tamosha qilib turib real mevalar, baliklar, sharbatlarning ta'mini tuyasiz. Rassomlar juda oddiy buyumlarni tasvirlashgan, lekin ular go'zal va shoirona bo'lgan. Ba'zi rassomlar oddiyroq natyurmortlarni tasvirlashni yoktirishsa, ba'zilar ko'p predmetli natyurmortni chizishgan, boshqalari esa katta xolstlarga qushlar, baliqlar, gullarni chizishgan. (Gollandiyada P.Klaas, V.Xeda, Flandriyada F.Sneyders va boshqalar). Natyurmortning asosiy motiviga odamlar, hayvonlar, qushlar va hashorotlar qo'shilgan. Natyurmort janrida ijod qilgan frantsuz rassomi J.Shardenning asarlari kompozitsiyasining mustaqilligi va talabchanligi, koloritning nozikligi, insonparvarligi bilan ajralib turadi.

XIX asrda yashab turli janrlarda ijod etgan buyuk musavvirlar natyurmort ham ishlashgan. Ayniqsa postimpressionistlar ijodida buyumlar mavzusi asosiy mavzulardan biri bo'lgan. (P.Sezann, Van Gog).

XX asr boshlaridan natyurmort janriga turli stilistik yo'nalishlarda ijod qilgan rassomlar ham murojat qilishgan. Ular rang, shakl, faktura va fazoni turli uslubda ishlab ko'rib topishga xarakter qilishgan. Natyurmortlar realistik, dekorativ,

kubizm manerasida ham ishlanishi mumkin. Buyumlarning go`zal dunyosini tasvirlashga juda ko`p rassomlar qiziqishgan.

Rus rassomlaridan P.Konchalovskiy, M.Mashkov, R.Folk, K.Petrov-Vodkin, M.Saryan, Yu.Pimenov va boshqa rassomlarning yaratgan natyurmortlari buyumlarning bor go`zalligini ko`rsatibgina qolmasdan, balki inson dunyosi, uning fikri va hissiyotlarini ham ochib bera olgan. Har bir rassom bu murakkab vazifani hal qilish chun o`ziga xos bo`lgan tasviriy - ifodaviy vositalardan foydalangan. Ba`zi natyurmortlarda odamlar ham qatnashadi. Chunki natyurmortni ko`rgan kishida u yerda xuddi birov birov bo`lgan, lekin chiqib ketgan va xohlagan daqiqada kelib qolishi mumkindek taassurot qoldiradi. Masalan, Yu.Pimenovning "Ko`tish" (1959 y) natyurmortida trubkasi olinib stolga qo`yilgan telefon tasvirlangan, oynadagi yomg`ir tomchilari esa bu qutish daqiqalarini qayg`uli ekanligini bildirib turuvchi tanish tuyg`uni uyg`otadi. Shu rassomning "Aktrisa" nomli natyurmortida esa predmetlar orqali shu kasbning dunyosigina emas, balki shu buyumlar egasining xarakteri ham ochib beriladi.

Ba`zi bir natyurmortlarda esa buyumlar faqat o`zlari haqidagina gapirishadi, ya`ni o`zlarining shakli, rangi, fakturasining go`zalligini ta`kidlashadi. Natyurmortlardagi buyumlar dunyosi ma`lum bir tarixiy davrning tashqi belgilarini aks ettiradi.

Manzara. Manzara- tasviriy san`atning janrlaridan biri bo`lib, uning predmeti tabiat va landshaft hisoblanadi. Bu janrda yaratilgan asarlarga ham manzara deyiladi. Manzara dastgoxli rangtasvir va grafikaning an`anaviy janri hisoblanadi. Manzara motivining xarakteridan kelib chikkan holda manzarani qishloq, shahar (shuningdek me`moriy manzarag) sanoat manzarasiga bo`lish mumkin. Shuningdek dengiz tasviri-marina janrini ham manzaraga kiritamiz.

Shu bilan birga manzara tarixiy, qahramonlik, fantastik, lirik, epik xarakterga ega bo`ladi. Masalan I.Levitanning manzaralarini ko`pincha "Kayfiyat manzarasi" deb atashadi. Uning kartinalarida kuvonch, tinchlik, g`am-qayg`u holati va o`zgaruvchan kayfiyat o`z aksini topgan. Shuning uchun ham rassom

predmetlarning hajmli shaklini rang dog'lari orqali va detallarni to'liq ishlamasdan, umumlashgan holatda beradi. M.Levitan tomonidan 1895 yilda yaratilgan "Mart" va "Oltin ko'z" asarlari xuddi shunday ishlangan va bu asarlar rus lirik manzarasi rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi.

Rus rassomi M.Shishkin o'z asarlarida rus tabiatining umumlashgan epik obrazini yaratdi va rus manzarasi chuqur mazmunli va demokratik san'at darajasiga ko'tarildi. ("Jo'xorizor" 1878 y,). Shishkin polotnolarining kuchi manzarani fotografik aniqlikda olinishida emas, balki asarlarining chuqur mazmunga ega ekanligidadir.

Manzara janrida tabiat ko'rinishi, fasl, vaqt va rassomning maqsadi ifoda qilinadi. Undan tashqari, manzarada chiziladigan narsalar orasidagi masofa, narsalar orasidagi o'lchov nisbatlari va ranglarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari tasvirlanadi. I.I. Levitanning "Oltin kuz" asarini tahlil qilib ko'raylik. Rassom kuz ko'rinishini juda mohirona ifodalagan. Suvda osmondagi bulutlar aks etmoqda. Chap tomondagi tik sohilda oltindek to'q qizil rangli oq qayinlar soyalarini yerga yoyib, qaddini rostlab mag'rur turibdi. Taglarida oltin barglar to'shalgan. Uzoqda ufqqa tomon cho'zilib ketgan bug'doyzor, o'tloqlar, daraxtlar, quyoshli kun, lekin salqin havo sezilib turadi.

Rassom O'.Tansiqboyevning "Jonajon o'lka" nomli asarida vatanimizning ajoyib xushmanzara tabiati tasvirlanadi. Ko'z o'ngimizda uzoqlarga cho'zilib ketgan qorli tog'lar etagida gul terayotgan bolalar, hayot kaynagan kishloq va kishilar mehnati namoyon bo'ladi. Ko'm-ko'k osmonda porlagan sahiy quyosh jozibali manzarani o'zining hayotbaxsh nurlari bilan yoritib turibdi. Tabiat mazarasini chizishga kirishilganda quyidagi holatlar: tabiiy yorug'likning o'zgarib turishi, ertalabki yorug'da narsalarning cheti tarqalgansimon bo'lib, to'tunga o'ralganga o'xshab ko'rinishi; kechkurun tiniq osmon tagida manzaraning aniq namoyon bo'lishi; Quyosh botish oldidan narsalar soyasining cho'zilishi va yer yuzidagi past-balandliklar aniq hamda yaqqol ko'rinishi hisobga olinishi kerak. Kundzgi yorug'da esa biz bularni yetarli darajada sezmaymiz.

Tabiat manzarasini chizish uchun ma`lum paytni tanlab olishimiz va shu paytni tanlab olishimiz va shu paytda bizda aks etgan taassurotni esda saqlashimiz zarur. Masalan, narsalar soyalarini turli vaqtda chizsak, chizgan soyalarimiz turlicha yo`nalishda bo`lib, xatolikka yo`l qo`ygan bo`lamiz. Bundan tashqari, narsalarning ma`lum bir vaqtdagi yoritilgan holatini ham esda saqlab qolishimiz kerak. Masalan, biz manzarani havo ochiq paytda ishlay boshlaganimizda osmonda bulut paydo bo`lib narsalarga soya tushadi, natijada ularning yoritilishi o`zgaradi. Demak, havo ochiq paytdagi yorug`likning esda saqlab surat ishlash lozim bo`ladi. Quyoshli kun -manzara ishlashda eng qulay payt hisoblanadi. Bu paytda narsalarning soyasi va yorug`lik deyarli bir hilda saqlanib turadi. Ana shunday kunlarda tush paytida 2-2,5 soat ishlash yaxshi natija beradi.

Dastavval ochiq joydagi, tagidan o`tlar, gullar o`sgan daraxt to`nkasi yoki xarsang toshning rasmi ishlanadi. Bunday sodda narsalarning rasmini ishlaganda ham, albatta, ufq chizigi va perspektiv qisqarish qoidalariga amal qilish lozim. Agar rasm ko`p narsalarni o`z ichiga olsa (ajoyib ko`rinish bo`lishiga qaramasdan) ish ko`payib ketib, uni eplay olmaysiz oqibat natijada ishlangan rasmingiz yomon chiqadi. Rasm ishlanganda narsalarning rangiga, o`zaro farqiga, soyasiga, tuzilishidagi xarakterli tomonlariga diqqat qilishni talab etadi.

Manzara ishlashda yaqin, o`rta va olisdagi narsalarni asosan 3 planga joylashtiriladi. Yaqin plandagi narsalarni aniqroq, olisdagi narsalarni ochroq chiziladi. Manzarada narsalarni, masalan, daraxtlarni bir qatorga joylamay, ularning birini oldinda, ikkinchisini uzoqda ko`rsatib joylansa, rasm chiroyli chiqadi.

Ko`pincha manzara boshqa janrlardagi rangtasvir, grafik, xaykaltaroshlik asarlari uchun fon bo`lib xizmat qiladi. Rassom faqatgina tanlangan manzara motivini ko`chiribgina qolmasdan, balki bu asar orqali o`zining tabiatga bo`lgan munosabatini ochishga harakat qiladi, yuksak emotsional ta`sirchanlikka va fikriy mazmunga ega bo`lgan badiiy asar yaratadi.

Inson tabiat manzarasini juda qadim zamonlardan tasvirlay boshlagan. Manzara elementlarini neolit davridan qadimgi Sharq mamlakatlari, ayniqsa qadimgi Misr va qadimgi Gretsiya san`atida uchratish mumkin.

O`rta asrlarda makbaralar, saroylar, boylarning uylari manzara motivlari bilan bezatilgan. Manzaralar ko`pincha ikona va miniatyuralarda masofani shartli ko`rsatish uchun xizmat qilgan.

Mustaqil janr sifatida manzara XVII asrda shakllangan. Uni golland rangtasvirchilari yaratishgan. XVI asrdayoq rassomlar naturani urgana boshlashgan. (Niderlandiyalik P.Breygel). XVII-XVIII asrlarda manzara janri gullab-yashnadi. (Flandriyalik P.Rubens, Gollandiyadan Rembrandt va I.Reysdal, Frantsiyadan N.Pusin va K.Lorrin). Havo perspektivasi yaratildi. XIX asrga kelib manzara janri ustalarining ijodini (Frantsiyadan K.Koro, Rossiyadan A.A. Ivanov, A.Savrasov, F.Vasilev, I.Shishkin, I.Levitan, V.Serov) Impressionistlar (Frantsiyadan E.Mane, K.Mone, O.Renuar, Rossiyadan K.Korovin, I.Grabar) davom ettirdilar va yorug`lik, havo muhitini o`zgaruvchanligi, tabiatning turli holatlarini va bo`yoq jilvalarining boyligini bo`yoqlar yordamida berish mumkinligini kashf qildilar.

XIX asr oxiri - XX asrda yirik rassomlar (Frantsiyadan P.Sezann, P.Gogen, Van Gog, A.Matiss, Rossiyadan A.Kuindji, N.Rerix, N. Krÿmov, Armanistondan M. Saren) manzara rangtasvirining emotsional, assotsiativ sifatlarini kengaytirdilar. Shuningdek manzara an`analarini A.Rÿlov, K.Yuon, A.Ostroumova- Lebedeva, A.Kuprin, P.Konchalovskiy va boshqalar davom ettirdilar.

Mustaqil janr sifatida manzara janri Xitoyda VI asrlardayoq kelib chikkan. Xitoy rassomlarining manzara asarlari tush bilan ipak matoga chizilgan. U juda chuqur falsafiy mazmunga ega bo`lib, xuddi cheksiz masofa, abadiy yangilanib turuvchi tabiatni ko`rsatayotgandek tuyuladi. Rasmlarda tog` panoramasi, suvli ko`l va daryolar tuman tasvirlangan.

Manzaralarda odamlar komatlari va yuksak ma`naviy sifatlarni ko`klarga ko`taruvchi simvolik motivlar (tog` sosnasi, bambuk, yovvoyi olxo`ri) tasvirlangan. Xitoy rangtasviri asosida yapon manzarasi chuqur grafik tasvirlarga ega. (K. Xokusay).

Manzara janri faqatgina tabiatning turli fasllardagi turli-tumanligi va go`zalligi, uning quyosh va oy yorug`ligidagi ko`rinishini tasvirlabgina qolmay, balki hissiyot va kayfiyatni tasvirleydi. K.Koro, Van Gog, P.Sezann manzaralarida real tabiat tasvirlangani bilan, ularda eng asosiysi rassomning shaxsiy hissiyotlari berilgan bo`ladi. Rassom faqatgina naturani ko`chirmaydi, balki o`zining ichki holatini rangtasvirida beradi, shuning uchun har bir rassomning o`zi sevgan rang munosabatlari, priyomlari mavjuddir.

Animal janri. Ko`pgina rassomlar hayvonlar va qushlarni tasvirlashni yaxshi ko`rishadi. Ba`zi rassomlar o`z ijodlarini shu mavzuga bag`ishlashgan. Ular animal janrida asarlar yaratadilar. Shu janrda ijod qiluvchi rassom animalist rassom deb yuritiladi. Animalist rassom asosiy diqqatni hayvonni badiiy -obrazli xarakteristikasiga qaratadi va shu bilan birga hayvonning anatomik qurilishiga ilmiy jihatdan juda aniq yondashadi. Hayvonot dunyosini tasvirini rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika, dekorativ amaliy san`at va kitob illyustratsiyalarida uchratish mumkin.

Ibtidoiy davr san`ati asarlari-qoya toshlarga ishlangan hayvonlarning asarlari qadimgi davrlar rassomlarining juda o`tkir kuzatuvchi bo`lganligidan guvohlik beradi. Masalan, Altamira (Ispaniya) qoyatoshlariga ishlangan mamontlar, bug`u va bizonlar hajmli qilib xarakterli poza va harakatlarda ishlangan. Ibtidoiy davr mifologik dunyoqarashi bilan mustahkam bog`langan bu san`at tabiat kuchlariga sig`inish (animizm) va hayvonot dunyosiga sig`inish (totemizm)ga asoslangan edi.

Hayvonlar tasviri antik davr san`ati mozaika, tuvakka rasm solish va xaykaltaroshlikda ham uchraydi.

Uyg`onish davrida rassomlar hayvonlarni naturadan qarab chiza boshlaganlar. Buyuk rassom Dyurer otlar, qushlar va boshqa hayvonlarni rasmini

chizishni juda yoqtirgan. Uning ishlari realistik va plastik aniqlikka ega. Sharq san`atida esa hayvonlar va qushlarni tasvirlashga juda katta e`tibor berishgan. Bu san`atga xos bo`lgan xususiyatlarini ochib berishga intilishidan iboratdir.

Rus rassomlaridan Ye. Lansere, P. Klodt, V. Serov kabi rassomlar hayvonlarning yorqin obrazini yaratishgan. Rossiya xaykaltaroshlari sherlar, ayiq, it, mushuk, ot va sigirlarning aniq tasvirini yaratib shuhrat qozonishgan. Masalan, P.K. Klodtning ot haykallari Sankt - Peterburg shahrining ko`priklarini bezab turibdi.

Taniqli animalist rassomlar V.A. Vatagin, I.S. Yefimov, Ye.I. Charushin, A.M. Laptev asarlari hayvonot dunyosini bilish va tushunishga yorqin misoldir.

Masalan Ye.I. Charushin illyustratsiyalaridagi hayvonlar ta`sirchan va yorqin obrazlarda berilgan. Bu rassomda shakl, rang va fakturani berishining o`ziga xos uslubi shakllangan. Uning qahramonlari juda real ishlangan. Uning har bir illyustratsiyasi bir-biriga o`hshamaydi. Har bir qahramonning o`z ta`sirchan, aniq holat va xarakterda turgan obrazi mavjud.

Tarixiy janr. Qadimgi davrlarda bo`lib o`tgan tarixiy voqealar rassomlarni tarixiy janrda asar yaratishga undaydi. Tasviriy san`atning bu janri katta ahamiyatga ega bo`lgan tarixiy voqea va hodisalarga bag`ishlanadi. Asosan u tarixiy o`tmishga murojat etadi, lekin unda yaqin o`tmishda bo`lib o`tgan va zamondoshlar tomonidan tarixiy ahamiyati tan olingan voqea va xodisalar ham aks ettirilishi mumkin.

Tarixiy janr tasviriy san`atning boshqa janrlari maishiy, portret, manzara janrlari bilan chatishib ketgan. Tarixiy janr asosan batal janri bilan aralashib ketadi. Chunki unda tarixiy janglar, yirik yurishlar va urush davri voqea va hodisalari tasvirlanadi. Xalqning sotsial kurashdagi dramatik to`qnashuvlari tarixiy janrdagi asarlarda o`z aksini topadi.

XVII-XVIII asrlarda tarixiy janr akademizm va klassitsizm da asosiy o`rinlarni egallagan. Bu janrni diniy mifologik va tarixiy syujetlarni haqqoniy aks

ettiruvchi yuksak janr sifatida qadrlashgan. Tarixiy - allegorik, ko'p figurali kompozitsiyalarda antik davr qahramonlari va qarama-qarshi kuchlarning o'zaro kurashlari o'z ifodasini topgan. (N.Pussen, D.Velasques, P.Rubens, Rembrandt).

Rossiyada tarixiy janr XVIII-XIX asrlarda rivojlandi. Tarixiy janr asarlarida 1812 yilgi Vatan urushi voqealari tasvirlangan.

Rus tasviriy san'atida tarixiy janrda asarlar yaratgan buyuk rassomlardan biri bu V. Surikovdir. U o'z asarlarida tarixiy voqealar, qahramonona milliy xarakterni ifodalagan. Uning "Boyar xotin Morozova" (1887 y), "Sibirni Yermak tomonidan zabt etilishi" (1895 y), "Suvorovning Alp toglaridan oshib o'tishi" (1899 y) nomli asarlari tarixiy janrlarda yaratilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida gumanistik ideallar uchun ko'rashuvchi rassomlar o'z tarixiy asarlarida revolyutsiya voqealarini, fashizmga qarshi kurashni ozodlik harakati voqealarini aks ettirganlar.

Sharq halqlari san'atida miniatyura san'ati asosiy o'rinni egallab, unda faqat dostonlarda aks ettirilgan voqealargina emas balki tarixiy voqealar ham o'z ifodasini topgan. Miniatyura san'atidagi tarixiy janrning eng yaxshi namunasi sifatida Kamoliddin Behzod tomonidan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asariga ishlangan tasvirlarni aytish mumkin. Mazkur qo'lyozmadagi Behzod chizgan suratlar turli tarixiy voqealar, jang holatlari, saroydagi qabul marosimi, Samarkanddagi binoqorlik ishlari va boshqa tarixiy voqealarni aks ettiradi. Bulardan birinchi qo'shaloq surat Amir Temurning bog'da o'tkazayotgan qabul marosimini tasvirlaydi.

"Zafarnoma"dagi ikkinchi surat Xiva kal'asining Amir Temur qo'shinlari tomonidan qamal qilinishini tasvirlaydi. Uchinchi suratda Amir Temur qo'shinlarining Oltin O'rda xoni To'xtamish (1381-1395)ning qo'shinidan qolgan-qutganlarini tor-mor keltirish voqeasi tasvirlanadi. Musavvir Amir Temur qo'shini, uning tuzilishi, qurollari va afzalliklarini bilgan holda, uning har qanday sharoitda ham jang qila olish qobiliyatini ko'rsata olgan.

Keyingi suratlarda Samarqanddagi Amir Temur tashabbusi bilan avj oldirgan binokorlik ishlari tarannum etiladi. Faqatgina shu Behzod asarlari tufayligina asrlar bo`yi jahon xalqlarini o`z muhtashamligi va ulkanligi bilan hayratga solib kelgan me`morchilik obidalarining haqiqiy ijodkorlari ko`z oldimizda namoyon bo`ladi.

Mustaqillikning qo`lga kiritilishi va yangi mafkuraning o`z mavqeiga erishishi natijasi o`laroq, milliy tarix alohida ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz ravnaki va mustaqilligiga ulkan hissa qo`shgan O`zbekistonning ko`zga ko`ringan madaniyati va tarix namoyondalari siyosiy unitishdan va yo`qlikdan qayta tug`ilishi bilan san`atda ularning portretlari galariyasi vujudga keldi.

Zamonaviy hayotda asosiy mavzu bo`lib kelayotgan Amir Temur obrazi, mazkur davr faoliyatlari bu galereyada asosiy o`rinni egallaydi. Buyuk sohibqiron obraziga respublikaning yirik rangtasvirchilari akademiklar M. Nabiyeu va N. Qo`ziboyevlar murojat qildilar. Musavvirlar o`ziga ishongan, jahongir hukmdor obrazini yaratdilar. M. Nabiyeu tomonidan yaratilgan Amir Temur (1999) obrazi o`zining sehrli jozibasi va kuchli ta`siri bilan zamonaviy tarixiy rangtasvirning o`ziga xos mumtoz asariga aylanib, etalon sifatida qabul qilindi.

Temuriylar sulolasining yana bir vakili Zaxiriddin Bobo`r portreti ham shular jumlasidandir. Shuningdek rassom K. Basharovning "Spitamen", Z. Faxriddinovning "Zafar", M. Nuriddinovning "Said Baraka Amir Temurni hokimiyat ramzi - nogora va g`alaba bayrog`i bilan taqdirlamoqda", S. Abdullayevning "Amir Temur, Bibixonim masjidi qurilishida" kabi asarlarini tarixiy janrda yaratilgan eng go`zal asarlardan deyish mumkin.

Tarixiy janrdagi ishlar realistik maktab an`analaridagi singari miniatyura rangtasviri uslubida ham bajarildi. Bu borada G. Kamolov, X. Nazirov, T. Boltaboyevlarning Respublika Oliy Majlisi intereriga rangtasvirda ishlangan turkum asarlarini ko`rsatish mumkin.

O`zbekiston rassomlari bugungi kunda tarixiy xotiralarni tiklash, o`z badiiy merosini qayta mushohada qilish kabi vazifalarni amalga oshirmoqdalar.

Batal janri

Tasviriy san`atning bu janri urush, jang, bosqinchilik va urush davri hayotining epizodlariga bag`ishlanadi.

Batal janri birinchi navbatda rangtasvir uchun xarakterlidir. U tarixiy va mifologik janrning tarkibiy qismi bo`lishi bilan birga, hozirgi davr armiya va flotining hayotini ham tasvirlashi mumkin. Batal janri boshqa janrlarning elementlarini ham o`zida jamlay oladi. Masalan, unda portret, manzara, animal va natyurmort (qurollar va urush davrining boshqa atributlari) janri elementlari ham o`z aksini topishi mumkin.

Batal janrining shakllanishi Uyg`onish davri (Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Titsian, Tintoretto)dan boshlanib, XVII-XVIII asrlarga kelib gullab yashnadi (D. Velaskes, Rembrandt, N. Pussen, A. Vatto). Ayniqsa XIX asr yarmidagi romantizm davrida urush daxshatlari juda ko`p aks ettirildi. (F. Goyya, T. Jeriko, E. Depakrua). Batalist - rassomlar o`z asarlarida ozodlik kurashi, adolatli urushni, jasorat, g`alabani aks ettirishi bilan birga urushning dahshatlarini, uning oqibatlarini ochib tashlab, la`natlaydilar. (P.Pikasso "Gernika", V.Vereshagin kartinalari, M.Grekov, A.Deyneka, Ye.Monsinko, G. Korjev asarlari va boshqalar).

O`zbekiston tasviriy san`atida batal janri yetakchi o`rin egallaydi. Tarixiy va batal janrida tinmay izlanishlar olib borib, ajoyib asarlar yaratgan rassomlardan biri bu Malik Nabiyevdir. M. Nabiyevning "Qo`zg`olon bostirildi", "Spitamen qo`zgoloni", "Muqanna qo`zg`oloni", "Samarqand qo`zg`oloni" kabi asarlari o`zining mukammalligi, tarixiy jihatdan ishonarliligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi davrda rassomlar ijodida ham batal va tarixiy janr asosiy o`rin egallib turibdi. E.Masharipov va A. Aliqulovlarning "Amir Temurning To`xtamishxon ustidan g`alabasi" (1996), Z.Faxriddinovning "Zafar" (1997), M. Nuriddinovning "Said Baraka Amir Temurni hokimiyat ramzi-nog`ora va g`alaba bayrog`i bilan taqdirlamoqda" singari asarlari bunga misol bo`la oladi. Bu asarlarda rassomlarning kompozitsion yechimga va tarixiy maishiy vositalarga alohida diqqat va bilim bilan yondoshganliklari sezilib turibdi.

Tarixiy janr, tarixiy mavzudagi asarlar — adabiyot va san’atdagi asosiy janr yoki mavzulardan biri; tarixiy o‘tmish mavzuida yozilgan asarlar turkumi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

Tarixiy o‘tmish mavzui asosan nasrning roman, qissa va hikoya, dramaturgiyaning tragediya va drama, shuningdek, she’riyatning doston, ballada, lirik she’r kabi janrlarida yoritiladi. Jahon adabiyotida tarixiy o‘tmish mavzui U. Shekspir va F.Shshierttt tragediyalari, V.Skott, J.Golsuorsi, L.N. Tolstoy va boshqa yozuvchilarning roman larida katta mahorat bilan yoritilgan.

Jahon adabiyotidagi tarixiy o‘tmish hayotidan olingan ayrim asarlar, mas., A.Dyuma romanlari yoki A.S. Pushkinning "kichik tragediyalar"ida tarixiy haqiqatdan chekinish, hatto tarixiy haqiqatga zid hodisalarni tasvirlash hollari

uchraydi. A.S.Pushkin "Motsart va Salyeri" asarida buyuk nemis kompozitorini Salyeri tomonidan zaharlangan, deb Motsartning o'limi sababini mutlaqo noto'g'ri talqin qilgan. Bunday hollar jahon adabiyotida shu vaqtgacha yozuvchining badiiy niyati bilan bog'liq holda izohlab kelinadi. Ammo Tarixiy janrning taraqqiy etishi bilan yozuvchi yoki shoirdan tarix haqiqatiga sodiqlik talab etila boshladi.

O'zbek adabiyotida zamonaviy tarixiy asar birinchi marta Abdulla Qodiriy tomonidan yaratildi. Yozuvchining "O'tgan kunlar" romani bilan o'zbek adabiyotida tarixiy roman janri maydonga keldi. Oybek "Qutlug' qon" romanida Qodiriy boshlab bergan tarixiy roman an'analarini rivojlantirdi va "Navoiy" romani bilan tarixiybiografik roman janriga tamal toshini qo'ydi. Keyinchalik O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", XX.Krdirov "Yulduzli tunlar", Muhammad Ali "Sarbadorlar" romanlari bilan tarixiy roman janrini yangi bosqichga olib chiqdilar. Dramaturgiyada tarixiy mavzuda asar yozish tajribasini Fitrat "Abulfayzxon" tragediyasi bilan boshlab berdi. Keyinchalik shu janrda Uyg'un va Izzan Sultonning "Alisher Navoiy", Hamid Olimjonnt "Muqanna", Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek", Abdulla Oripovning "Sohibqiron" singari tragediyalari vujudga keldi va bu asarlar tarixiy shaxs obrazini yaratishda dramaturgiyaning badiiy imkoniyatlari katta ekanini namoyish etdi. She'riyatda esa turli davrlarda Rafik, Mo'minning "Qapchig'ay", Oybekning "Navoiy" va "Hamza", Sulton Jo'raning "Bruno", Usmon Azimning "Xalil Sulton", Azim Suyunning "Sarbadorlar" singari dostonlari yaratilib, ular tarixiy mavzudagi dostonlarning badiiy tamoyillarini belgilab berdi.

Shoirlar tarixiy o'tmish manzaralarini hayotiy voqealar va qahramonlar obrazi orqali tasvir etish bilan birga ko'plab ertakdostonlar ham yaratdilar. Ammo ularni Tarixiy janrga kiritib bo'lmaydi. Negaki, tarixiy mavzudagi har qanday asarda tarixiylik asosiy badiiy mezon bo'lishi va yozuvchi o'z asarida tarix haqiqatiga qat'iy rioya qilishi lozim. Mas., Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar Zulkarnayn (Aleksandr Makedonskiy) obrazi mavjudligiga qaramay, uni tarixiy yoki tarixiybiografik asar, deb bo'lmaydi.

Tasviriy san'atda Tarixiy janr jamiyat tarixidagi ijtimoiy siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqealar va arboblarni tasvirlashga asoslanadi. Odatda o'tmishni tasvirlaydigan Tarixiy janr, shuningdek, yaqin o'tmishda ro'y bergan va tarixiy ahamiyati zamondoshlar tomonidan tan olingan voqealarni aks ettirishni ham o'z ichiga oladi; ko'pincha maishiy janr, portret, manzara kabi boshqa janrlar bilan, ayniqsa, harbiy voqealarning tarixiy mazmunini yorituvchi batal janri bilan chatishib ketadi. Tarixiy janr rivoji tarixiy nuqtai nazarlar, ijtimoiysiyosiy qarashlar taraqqiyoti bilan, yuksalish davrlari esa ijtimoiy qaramaqarshiliklar sharoiti, ijtimoiy harakatlar, millatlarning o'zligini anglashining o'sishi, san'atda ilg'or ijtimoiy g'oyalarni aks ettirilishi bilan bog'liq. Tarixiy janrda ko'pincha tarixiy kuchlarning dramatik to'qnashuvi, milliy ozodlik kurashlari, xalqqa tarixni harakatga keltiruvchi faol kuch sifatida qarash kabilar uzining badiiy ifodasini topadi. Tarixiy janr qadimdan — ibtidoiy jamoa davridan bo'lib o'tgan muhim voqealarni eslash, xotirlash va shu xotiralarni tasvirlash zaminida yuzaga kelgan. Old Osiyo, K,ad. Misr, O'rta Osiyo, Eron hududlarida harbiy yurishlar, podsho, harbiy qo'mondonlarning faoliyatini madh etuvchi ko'p jussali murakkab kompozitsiyali asarlar yuzaga kelgan; mamlakatlar ichki hayoti, tashqi aloqalar, elchilar qabuli va boshqa voqealar rassomlar va haykaltaroshlarning asarlarida o'z ifodasini topdi. Jumladan, Tuproqqal'a devoriy rasmlari va haykallari, Afrosiyob devoriy rasmlari va boshqa Yunonistonda muhim voqealar, tarixiy shaxsning qiyofalari afsonaviy obraz va kompozitsiyalarda ifodalandi. Qad. Rimda Tarixiy janr o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi, asarlar o'zining o'ta realligi va tafsiloti bilan diqqatga sazovor, bu jihatlar, ayniqsa, relyefli kompozitsiyalarda namoyon bo'ldi. O'rta asrlarda diniy mavzulardagi asarlarda tarixiy voqealar ham tasvirlandi. Osiyo mamlakatlarida Tarixiy janrda salmokli asarlar yaratildi, bu ayniqsa, devoriy rasmlar va voqeaband relyeflarda ko'p uchraydi, miniatyura va monumental san'atda keng rivojlandi.

Uyg'onish davrida Tarixiy janr mustaqil janr sifatida shakllandi, 17—18-asrlarda yetakchi janr darajasiga ko'tarildi (D.Velaskes, P. Rubens va boshqalar),

tarixiy portretlarga e'tibor kuchaydi (haykaltarosh J. Gudon, rassom J. Reynolde, J. David va boshqalar), 19-asrdan Tarixiy janrda insoniyat tarixida bo'lib o'tgan muhim voqealar, xalq boshiga tushgan og'ir musibatlar asarlarda o'z ifodasini topdi (F. Goyya, O.Delakrua va boshqalar). 19-asr 2yarmi Yevropa san'atida yaratilgan asarlarda romantik ruh kuchli bo'lsa, peredvijniklar asarlarida tanqidiy ruh yetakchi bo'ldi. 20-asr bo'sag'asida ramziy umumlashma asarlar yaratish, tarixiy portretlar ishlash keng yoyildi. 20-asr jahon madaniyatida mavjud bo'lgan turli oqim va yunalishlar Tarixiy janr asarlarida ham namoyon bo'ldi (P. Pikasso, A. Fujeron, O.Diks, G.Gros, R.Guttuzo, D.Rivera, D.Sikeyros va boshqalar).

O'zbekiston tasviriy san'atida Tarixiy janr qadimdan shakllangan va taraqqiy etgan. Tarixiy janrning dastgoh shakllari 20-asr 30y.laridan rivojlandi. Mahalliy rassomlardan B.Hamdamiy, A. Abdullayev, Sh. Hasanova va boshqa ijodida tarixiy shaxslarni gavdalantirish muhim o'rin tutadi. 50—60y.lardan o'zbek tasviriy san'atiga keng ko'lamda mahalliy rassomlarning kirib kelishi Tarixiy janr mavzu va uslubining rangbarangligini ta'minladi. M.Nabiyev, R. Choriyev, J. Umarbekov va boshqa rassomlar ijodida Tarixiy janrga oid asarlar yuzaga keldi. Mustaqilliqdan so'ng tarixga, o'tmishga murojaat etish va e'tiborning ortishi Tarixiy janrni yanada yuksalishini belgilab berdi: Jaloliddin Manguberdi, AlFarg'oniy, Amir Temur kabilarga bag'ishlangan tarixiy turkum asarlar yaratildi.

Mifologik janr

Afsona, ertak va qadimgi hikoyalar asosidagi syujetlarga ishlangan kartinalar mifologik janrga mansub bo'ladi. Dunyo xalqlarining ertak va afsonalari badiiy ijodning muhim manbai hisoblanadi. Mifologik janr yunon-rim afsonalariga ishonish yo'qolib, ma'naviy - allegorik mazmunga ega bo'lgan xiqoyalarga aylanganidan so'ng kuyiantik va o'rta asr san'atida tugiladi. Afsonaviy janr Uyg'onish davrida shakllanadi va S. Bottichelli, A. Mantenya, Jorjone, Rafael asarlari antik davr afsonalari asosida yaratiladi. XVII asr va XIX asr boshlarida afsonaviy janr kartinalari haqidagi tasavvur ancha kengayadi. Ular yuksak badiiy

idealni ko`rsatishga (N.Pussen, P. Rubens), hayot bilan yaqinlashishga (D. Velaskes, Rembrandt), bayramona go`zallikni yaratishga xizmat qiladi. XIX asrga kelib afsonaviy janr yuqori ideal san`atning normasiga aylanadi (I.Martos xaykallari). XIX-XX asrlarda antik mifologiya asarlari bilan bir qatorda hind afsonalari mavzulari ham ommaviylashib ketadi. XX asr boshlarida simvolizm va modern mifologik janrga qiziqishni kuchaytiradi. (M. Deni, M.Vrubel). Mifologik janrda juda go`zal kartinalarni yaratgan rassomlardan biri bu V.M. Vasnetsovdir.

U ertak va afsonalar asosidagi syujetlarga juda ko`plab kartinalar yaratgan. Uning dastgohli kartinalarida mifologik mavzu va obrazlar turlicha jaranglagan. Masalan, "Uch bahodir", "Slavyanlarni skivlar bilan jangi" asarlarida qahramonlik aks etsa, "Alyonushka", "Shox Ivan kulrang bo`ri ustida" asarlarida obrazlar shoirona va lirik jaranglaydi. V.M. Vasnetsov milliy ahamiyatga ega bo`lgan badiiy vazifalarni hal qilishga harakat qilgan. V.M. Vasnetsovning "Uch bahodir" asarida hech qanaqa aniq harakat yo`q, lekin undagi ichki kuch va ichki dinamika seziladi. Kartinning chiziqli ritmi o`ta talabchan va monolit, u tasvirni yaxlitlashtira olgan. Kartinning rang gammasi o`ta boy va go`zal palitrasi jarangdor va tiniq, qizil, qora, oq va yashil ranglar kontrastlari juda ta`sirchan chiqqan.

Hozirgi davrda mifologik janr kartinalari turli yo`nalishlarda, Ayniqsa modern va avngard uslubida yaratilyapti. Bu janrda yaratilgan asarlar inson kalbida o`z o`tmishi, vatani va halqiga, uning udumlariga nisbatan mehr- muhabbat uyg`otadi.

Maishiy janr

Kartinalarda faqat tarixiy, qahramonona voqea va hodisalarnigina emas, balki oddiy hayotni ham tasvirlash mumkin. Bunday kartinalar maishiy janr asarlari hisoblanib, ko`pincha ular janrli rangtasvir asarlari deb yuritiladi. Asosan bu voqealar rangtasvir polotnolarida tasvirlanadi, lekin ularni grafikada va xaykaltaroshlikda ham uchratish mumkin.

Rassomlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan maishiy voqealar o`sha davrlarda yashagan odamlarning hayoti bilan tanishtiradi. Bu janr XV-XVII asrlarda Yevropa milliy maktablarida gullab yashnadi. Bunga misol qilib P.Breygelning "Kretyanning to`yi" kartinasi keltirish mumkin. Bu kartinada halq bayramining go`zal va quvnoq sahnalari o`z ifodasini topgan.

Flamand P.Rubens o`zining asarlarida qishloq bayramlarini realistik ravishda tasvirlaydi. Golland rangtasvirchilari (G.Gerborx, Ya.Vermer) jamiyatning turli qatlamlari hayotini mehr - muhabbat bilan tasvirlaganlar. XVIII asr Frantsuz rassomlari A.Vatto, F.Bushe, J.B. Sharden, O.Fragonarlar ham maishiy janrda asarlar yaratganlar.

Keyinchalik rassomlar bo`layotgan voqealarni oddiy qilib tasvirlamasdan uning ichki mohiyatini ochib berishga harakat qila boshladilar.

Jamiyat hayotiga tanqidiy munosabatda qarash frantsuz rassomlari O.Dome, G.Kurbe va rus rangtasvirchilari A.Venetsianov, G. Myasoyedov, V.Perov, I.Repin, P.Fedotov va sayyor rassomlar ijodida o`z aksini topdi. Rus rassomi B. Kustodiyev o`z kartinalarida savdog`arlar hayotini turli qirralari bilan tasvirlagan.

Maishiy janr O`zbekiston rangtasvirchilarining ham kuchli jihatlaridan biri hisobalanadi. O`zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib rangtasvirchilar sulolasini vujudga keltirdi.

O`zbek tasviriy san`atidagi maishiy janrni eng avvalo rassomlardan L.Bure, A.Isupov, O.Tatevosyan, A.Volkov, I.Kazakov va boshqa rassomlar rivojlantirdilar. Maishiy janrda yaratilgan rangtasvir asarlarida o`zbek halqining hayoti o`ziga xos tarzda tasvirlangan.

Ayniqsa rassom A.Volkov o`z asarlarida milliylik va milliy an`analarni juda katta ehtirom bilan tasvirlagan. Uning asarlaridan "Qizil choyxona", "Choy", "Eski shahar choyxonasi", "Sandalda" kabi asarlari g`oyat go`zal yaratilgan.

Yana bir rassom P.Benkov o`z asarlarida o`zbek halqining hayotini yangi qirralarini ochib berishga harakat qildi. Uning "Buxoro bozori", "Ko`cha arizachisi", "Uzum bozori", "Sabzavot bozori" kabi asarlari o`zida sharq halqlari

hayoti, odamlar harakatining turli-tuman ritmini, milliy kiyimlarning go`zalligini, bozorlarning to`qin-sochinligini aks ettirgan.

Rassomlardan M.Nabiyev, T.Oganesov, M.Saidov, R.Axmedov, B.Boboyev, V.Burmakin, J.Izentoyev. A.Ikromjonov, Yu.Taldikin, R.Xudoyberganovlar ham janrli kartina yaratish soxasida mehnat qildilar.

Keyingi davrlarda maishiy, tarixiy va batal janrlari orasidagi chegaralar yo`qolib ketdi. XX asr maishiy janrining rivojlanishi murakkab va turli-tuman yo`ldan ketdi. Bu davr kartinalariga psixologik nyuanslar va o`zgaruvchan voqealar xosdir. Kartinalarda simvolik mazmun ham ochib berilgan (P.Gogen, V.Borisov - Musatov, K.Petrov - Vodkin) shu bilan birga oddiy hayotiy voqealar ham bo`rttirib, qahramonona ko`rinishda beriladi. (B.Ioganson, A.Deyneka, A.Plastov).

Maishiy va tarixiy janrlarda personajlarning o`zaro aloqasi juda muhim bo`lib, obrazlar rang yordamida yaratiladi. Biz avvalo kartinaning syujetiga, nima tasvirlaganiga e`tibor beramiz, keyin esa uning bo`yoqlari, qanday ishlangani va ishlanish uslubiga e`tiborni qaratamiz. Chunki kartinaning kayfiyati, elyutsional ta`siri undagi ranglarning qanday tanlanganiga bog`liq. Kartinaning koloriti quvnoq va g`amgin, tinch va qayg`uli, sirli va aniq bo`lishi mumkin. ***Rangni tushunish va uni qabul qilish. Rang simvolikasi.*** Rangni his qilish - halq badiiy madaniyatini aks ettirishdir. Odamlarda rangni qabul qilish individual xarakterga ega. U odamning jinsi, yoshi, kayfiyati, hayotiy tajribasi va ko`pgina boshqa sabablarga bog`liq bo`ladi. Shu bilan birga turli odamlardagi rangni qabul qilishda ko`pgina umumiylikni topish mumkin.

Rang orqali fikrlash va konstruktsiyalash mumkin. Rang predmetning shaklini bera oladi, atrof-muhitni go`zalligini tasvirlaydi, hissiyotlarni, kayfiyatni, aniq emotsional holatni aks ettiradi.

Rang so`zi rangtasvir jarayonini ko`pgina sifatlarini aniqlaydi, shuning uchun ham rang san`atning bu to`rini asosi hisoblanadi. Rangtasvir uchun kerakli rang bo`yoqni palitrada aralashtirish orqali olinadi. Keyin rassom bo`yoqni

kartinadagi rang tarkibi kolorit yaratish orqali kartina tekisligida rangga aylantiradi.

Asrlar davomida odamlar rangni turlicha qabul qilishgan. Qadimgi odamlar biz hozir ko`ra oladigan turli ranglarni sezishmagan. U davrlarda avvalambor eng yorqin ranglar - qizil va sariqni, keyinchalik esa ko`k va yashilni ko`ra boshlashgan. Masalan, qadimgi grek rangtasvirchilari faqat to`rt hil rang ishlatishgan: bular qizil, oxra, qora va oq ranglar. Keyinchalik palitradagi ranglar ko`paya borgan, lekin rassomlar juda ham ko`p vaqtlargacha yashil va ko`k rangni ajrata olishmagan, pushti va siyohrang bo`yoqlarni esa keyinchalik ajrata boshlashgan. Lekin bu faqat taxmin xolos.

Umuman olganda dunyoni rang-barang qabul qilish Shimol mamlakatlaridan kelib chiqqan deyish mumkin. Chunki u yerlarda atmosferaning namligi yuqori bo`lganligi uchun rang tonlari bir-biriga yengil kirishib ketgan va rassomlar osmon, yer, dengiz va uzoqlarning boy rang jilvalariga diqqat bilan qaray boshlashgan. Bu keyinchalik Venetsiya, Parij, Amsterdam, Londonda koloritik rangtasvirning tug`ilishiga olib keldi. Eng muhimi rassomlar kartinani ochiq havoda (plener) da ishlab boshlashdi. Bu ularning rangni yaxshi ajrata olish qobiliyatini o`stirdi.

Demak, odamlarning rangni qabul qila olishda tabiatning o`zi yordamga kelgan. Tabiatdagi ranglarning bir-biriga mosligi, uning yaxlitligi va uyg`unligi rassomga tabiat hodisalarini kartinaga tushirish yo`llarini izlashda yordam beradi. Rangni qabul qilish ko`p jihatdan rang tonlariga, uning yorqinligi va to`yinganligi darajasiga bog`liq. Rassom ranglarni kartinada ijod mahsuli sifatida qo`yish uchun tez-tez yangi vositalarni, texnikani izlab topadi.

Rang insonni quvontirishi va jahlini chiqarishi, qo`rquv, g`am yoki alam hissini uyg`otishi mumkin. Boshqacha so`z bilan aytganda, rang odamlarga emotsional ta`sir o`tkazadi. Ba`zi ranglar nerv sistemasini tinchlantirsa, ba`zilari aks ta`sir ko`rsatadi. Yashil. osmon rang, ko`k ranglar tinchlantirsa, qizil. Zarg`aldoq, sariq ranglar hissiyotini qo`zg`otadi.

Ranglarning insonga ta`sirini birinchi bo`lib I.Gyote o`rgangan. U shoir sifatida yashil rang sahiylik, tinchlik, ko`zni va qalbni tinchlantiruvchi vosita deb bilgan. Ko`k rang sovuqlik hissini uyg`otishini, qizil rang esa aks ta`sir ko`rsatishini sezib bila olgan. M.Gyote bir hil manzarani yashil, sariq, qizil va boshqa ranglarni shishadan kuzatishni yoqtirgan va bu holatda odamning emotsional holatini o`zgarishini kuzatgan.

Tasviriy faoliyatda qizil rang hissiyotini qo`zg`atuvchi, qizdiruvchi, tiriltiruvchi faol rang sifatida sariq rang esa - issiq, quvnoq, tektiklashtiruvchi, olov sahiy rang sifatida qabul qilinadi. Yashil rang ham xotirjamlik, yoqimli va tinch kayfiyatni yaratadi.

Ko`k rang esa jiddiy, qayg`uli, g`amgin, sentimental va tinch rang sifatida xarakterlanadi. Siyohrang qizil va ko`k ranglarning emotsional ta`sirini birlashtiradi. U bir vaqtning o`zida o`ziga tortuvchi va uzoqlashtiruvchi, hayotga to`lik, shu bilan birga g`am va qayg`uni keltiruvchi rang hisoblanadi.

Ranglarni qabul qilish ko`p jihatdan yorug`likka ham bog`liq bo`ladi. Agar biz qalamtasvirda masofani chiziqli perspektiva yordamida bersak, rangtasvirda esa bu holatni naturani rangli va tonli munosabatlaridagi o`zgarishlar asosida beramiz. Havo perspektivasi qonuniyatlariga ko`ra uzoq masofada turgan to`q rangli predmetlar sovuq tusga, ko`pincha osmonrangga, yorqin ranglar esa issiq tusga kiradi.

Bo`rtgan ranglar qatoriga, asosan issiq ranglar kiradi. Bunday rangli predmetlar o`zlari turgan joyga nisbatan yaqinroqda turganga o`xshab ko`rinadi.

Uzoqlashtiruvchi ranglarga sovuq ranglar kiradi. Sovuq rangli predmetlar esa xuddi uzoqlashganga o`xshab qoladi. Bu bilimlarni ijodiy qo`llash orqali kartina tekisligida chuqurlikni berish mumkin, yoki aksincha tasvirning biron-bir qismini yaqinlashtirish mumkin.

Buyuk rassom Rembrandt o`zining rangtasvir asarlarida yorug`likni juda muvaffaqiyatli qo`llagan. Uning kartinalari hamma vaqt ichki yorug`lik bilan yoritilgan. Unda tasvirlangan oddiy odamlar xuddi kartinadan nur taralayotganga

o`xshab ko`rinadi. Rassomning buyukligi uning insoniyligidadir. U o`zining mo`yqalami bilan yorug`lik olib keladi. Rembrandt asarlaridagi yorug`lik inson qalbini ko`rishga yordam beradi.

Ranglar simvolikasi. Ranglarning yagona simvolik sistemasi hech qachon bo`lmagan, lekin asrlar davomida hamma tushunarli bo`lgan aniq rang simvollarini paydo bo`lgan. Qadimdan insonlar ranglarga katta ahamiyat bergan. Quyida biz ba`zi ranglarning simvolikasini ko`rib chikamiz.

Qizil rang - bu olov, issiqlik, quyosh, qonimiz rangi, demak hayot rangi hisoblanadi.

Qadimdan olov inson taqdirida muhim rol o`ynagan. Ibtidoiy davrlarda ham qizil bo`yoq ulug`lik va yorug`likni, shuningdek xavf - xatar belgisini bildirgan. Svetoforning qizil signali ham to`xtash lozimligini bildiradi. bizning Atrofimizdagi xavf-xatarning rang signallari qizil rangda.

Qizil rang tantanani aks ettiradi, hurmat va ehtiromni bildiradi, shuningdek uni qirollar rangi deb atashadi. Ba`zi mamlakatlarda hurmatli mehmonlar oyog`i ostiga hurmat belgisi sifatida qizil gilamlar to`shash an`anaga aylangan. Ko`pgina qirollar qizil rangli mantiya osib yurishni ma`kul ko`rishgan, fors shohlari esa oltin qushlar tikilgan qizil kiyim kiyishgan.

Xitoyda - qizil rang Feniks qushi ramzi hisoblanadi. Bu qush o`zini yoqib, keyin kuldan qaytadan tug`ilish qobiliyatiga ega bo`lgan. Yaponiyada esa quyoshga sig`inishlari sababli, qizil rang hosil va to`qlik keltiruvchi quyosh rangi hisoblangan. Yaponlar qizil rang yovuz kuchlar va falokatdan, kasallik va baxtsizlik asrashiga ishonishadi. Yaponiyaning davlat bayrog`ida quyoshning qizil halqasi tasvirlangan.

Qizil - bayroqlar rangi. Qizil rangdagi havo sharlari va bayroqchalari bayram kayfiyatini yaratadi.

Rus halqining madaniyatida qizil rang xavf-xatardan saqlovchi rang hisoblangan. Dehqonlarning kiyimlari ho`jayini yovuz kuchlardan saqlovchi qizil

iplar bilan tikilgan. Shuningdek qizil rang sevgi - muhabbat ramzidir. Qizil atirgullarni sevgi belgisi sifatida taqdim qilishadi.

Zarg`aldoq rang ham quyosh rangi sanaladi. Bu muvaffaqiyat va zafar keltiruvchi quvnoq rang. Qadimda cho`pon va dehqonlarning hayoti tabiat kuchlariga, asosan quyoshga bog`liq bo`lgan. Afsonalardagi barcha quyosh xudolari oltinrang kiyimlar kiyib, oltin aravada yurishadi.

Tabiatda zarg`aldoq ranglar juda kam. Yo`l ishchilarining kiyimlari ham zargaldoq rangda bo`ladi, chunki zargaldoq rang uzoqdan ko`zga yaxshi tashlanadi. Bu esa yo`ldagi har hil halokatlarning oldini oladi. Birinchi kosmonavtlarning kiyimlari ham zarg`aldoq rangda bo`lgan, chunki shunda ular yerga qo`nganidan so`ng topish osonroq bo`lgan.

Sariq rang ko`pgina tushlarga ega. Quyosh yorug`ligining rangi sariq rangga mos keladi. Qadimgi davrlardan sariq rang ilohiy va tilla rang hisoblangan.

Bundan tashqari yorqin va tiniq sariq rang yuqori ijodiy yuksaklik va haqiqat hissini beradi. Avstraliyaning yerli halqi uchun esa sariq rang hayot rangi hisoblanadi. Shuning uchun ham avstraliya bayrog`ining o`rtasida sariq rangli aylana joylashgan. Shu bilan birga turli halqlar madaniyatida sariq rang sahiylik, qo`rkoqlik va qo`rquvni bildiradi. Ko`pgina rassomlarning kartinalarida Iuda sariq rangli kiyimda tasvirlangan, chunki u Iisusga sotqinlik qilgan. Ko`pincha sariq rangli gullarni o`zlari yoqtirmaydigan odamlarga sovg`a qilishgan.

Yashil rang - tabiat, hayot, abadiylik rangi. Bu Yerdagi hayotni ularsiz tasvavvur qilib bo`lmaydigan yashil o`simliklar (yaproqlar, o`t-o`lanlar, shoxlar va hokazo) dunyosi. Yashil - yangilanish, tug`ilish, yoshlik, usmirlik, umidlar ramzi. Yashil rangni ekologik tashkilotlar o`zlarining simvoli sifatida qabul qilishgan. Masalan Grinpis (inglizchadan "Yashil") halqaro harakati tabiat, o`rmonlar, dengizlarni saqlab, kelajak avlodlarga yetkazish uchun harakat qilishadi.

Osmon rang va ko`k rangi - osmon va suv, muomala va hissiyot rangi hisoblanadi. Osmonrang tonlar yengillik, tozalik, salkinlik hissiyotini uygotadi. Ko`k rang abadiylik va turg`unlik, sir va haqiqatni bildiradi.

2.2. Amir Temur buyuk siymo sifatida

Buyuk sarkarda va hukmdor Amir Temur davrida xalqaro munosabatlar va uning tarixda tutgan o'rnini haqida so'z yuritishdan oldin bir fikrni ta'kidlab o'tish joiz. 2700 yildan ortiq davlatchilik tarixiga ega o'zbek xalqining o'tgan ming yilliklardagi xalqaro aloqalari juda kam o'rganilgan, chunonchi, tashqi siyosiy munosabatlar diplomatiyasi masalalari deyarli tadqiq qilinmagan. Shu ma'noda mazkur yo'nalishda qo'yilgan har bir qadam katta qiziqish uyg'otishi tabiiy. Shunga qaramay biz temuriylar, ayniqsa, Amir Temur davri tashqi siyosiy aloqalari va diplomatiyasini hech bir mubolag'asiz xalqaro munosabatlar tariximizning eng yorqin sahifalaridan deya olamiz. Ko'rilayotgan davr xalqaro munosabatlariga baho berayotganda bir qoidani yodda tutmoq darkor, ya'ni markazda voqelik turishi kerak, nainki bir shaxs yoki shaxslar. Tarixiy voqelikni har taraflama va chuqur tahlil qilmasdan turib, avvaldan qandaydir bir ijtimoiy yo hissiy buyurtma bilan bir mavzu, yo shaxsni ulug'lash, oqlash yo qoralash, xaspo'shlash maqsad qilib qo'yilsa boshi berk ko'chaga kirib qolish, qolganlarni ham o'sha yoqqa boshlab ketish hech gap emas. Tarixiy voqelik to'g'ri anglab olingandagina tarixiy shaxslar roli va xizmatlari yaqqol bilinadi. Bundan tashqari tadqiq qilinayotgan mavzu va makon haqida ham to'g'ri va aniq tasavvurga ega bo'lish nihoyatda muhim. Shu ma'noda Amir Temur davri xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi mag'zini chaqishda eng avvalo, o'sha zamondagi jahon siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy manzarasini bilib olishga to'g'ri keladi. Zero, Amir Temur dunyo miqyosida o'z davrining moxir siyosatchisi va diplomatidir.

Demak, biz, avvalo, ana shu «o'yin maydoni»dagi ahvolni, past balandliklarni, qonun-qoidalarini bilib olishimiz kerak. Shundagina Amir Temurning har bir muayyan vaziyat yo masalada tutgan siyosati va yondashuvining sabablarini ko'ra olamiz. Ushbu referat ishining dolzarbligi ham ana shundadir. Bu o'z o'rnida Amir Temur davri davlatimiz tashqi siyosati va diplomatiyasining mohiyatini anglash uchun yo'l ochib beradi. Ushbu mavzu o'ta

dolzarb bo‘lib, milliy iftixor, milliy g‘urur va milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida qilinayotgan ishlarning bir debochasi desak adashmagan bo‘lamiz.

Zero, Prezidentimiz ta'birilaricha “Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish qurol kuchidan ko‘ra o‘n baravar foydaliroqdir” – degan dono so‘zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so‘zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo‘li bilan hal qilishni bildiradi”– degan edilar. Shuni ham aloxida ta'kidlab o‘tish joizki Amir Temur o‘z harbiy harakatlarini uzoq va yaqin mamlakatlar ila faol diplomatik munosabatlar bilan birga olib borardi. Umuman u tinch yo‘l bilan qilingan barcha diplomatik harakatlar hech bir natija bermagan hollardagina tashqi diplomatik maqsadga erishishning bir vositasi sifatida urushdan foydalanar edi. Amir Temurning xalqaro maydondagi diplomatik siyosati davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida Oltin O‘rda va Dashti Qipchoqqa nisbatan amalga oshirgan tadbirlari, jahongirlik faoliyati boshlanganda dastlab Xuroson, so‘ngra Eron va Ajam Iroqi, Kavkaz sarhadlari, Hindiston, so‘ngra arab mamlakatlari hamda Turkiya va nihoyat, yevropa davlatlari bilan bo‘lgan muloqotlarining har biri alohida ilmiy tadqiqot manbai sifatida tahlil qilinishi kerak. Bu yerda faqat Amir Temur davlati tashqi siyosati, uning diplomatiyasi haqida umumiy tasavvur berishi mumkin bo‘lgan ayrim mulohazalarni keltirish bilan cheklaniladi, xolos.

Ma'lumki, o‘zbek olimi Ibrohim Mo‘minov "Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli" asarida Sohibqiron faoliyatini ikki bosqichga — Turon zaminda mustakil davlat tuzish va xorijiy mamlakatlarni fath etishga yo‘naltirilgan davrlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etgan edi. Nazarimizda, Sohibqiron davlatining tashqi siyosatini tahlil etishda ham ana shu mezondan kelib chiqish ma'qul ko‘rinadi.

Chunki, tarixda tarkib topgan har qanday davlatning tashqi siyosati va uning xorijiy munosabatlari uning ichki siyosatining bevosita davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, Amir Temur davlati diplomatik aloqalari ham u yuritgan umumiy siyosatning ajralmas va uzviy bir qismi sifatida maydonga chiqqan hamda

amalga oshirilib kelingan. Amir Temur faoliyatining 1370 - yilgacha bo'lgan davri, asosan, Movarounnahrni 150 yildan ortiqroq davom etgan mo'g'ullar zulmidan ozod qilish, bu yo'lda uchragan barcha to'siqlarni yengib o'tish va Turonzaminda mustaqillik bayrog'ini barqaror etish bilan belgilanadi. Bu vaqt ichida Sohibqiron ana shu asosiy maqsadni ruyobga chiqarish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirdi. U juda katta aql-zakovat va ziyraklik bilan barcha og'ir vaziyatlardan chiqa bildi.

Amir Temurning bu davrda Movarounnahrdan tashqaridagi mamlakatlar hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik muloqotlari shuni ko'rsatadiki, uning jahongirlik siyosatidagi barcha masalalar asosan islom dini nuqtai nazariga asoslangan holda hal etishga qaratilgan. To'g'ri, ko'pchilik hollarda Sohibqironning harbiy yurishlari islom mamlakatlariga nisbatan amalga oshirilgan. Gap shundaki, bunday hollarda musulmon hukmdorining hech qanday asos bo'lmagan bir sharoitda boshqa musulmon davlatiga tajovuz qilishiga fatvo yo'q. Ammo mo'g'ullar hukmronligi yillarida ko'pgina musulmon sarhadlarida islom dinining oldingi mavqei susayib qolgan, chunki majusiy mo'g'ul hukmdorlar (masalan, O'rta Sharqdagi xulagiylar yoki Markaziy Osiyo sharqidagi jetalar) o'z manfaatlari yo'lida islom qonunqoidalari bilan mutlaqo hisoblashmas edilar. Amir Temur davlat tepasiga kelgan vaqtda bu boradagi ahvol islom dini foydasiga o'zgarib boshlagan bo'lsada, hali ko'p nohiyalarda majusiylarning g'oyaviy hayotdagi salbiy ta'siridan bo'lgan norozilik bosilmagan edi. Sohibqiron bu ahvoldan o'ziga tobe kuchlarni maqsad sari safarbar etishda va boshqa mamlakatlarga nisbatan uyushtirilgan harbiy yurishlarni oqlash uchun g'oyat oqillik bilan foydalanadi. U olib borgan barcha jangu jadallar islom dinining g'orat etilishiga yo'l qo'ymaslik, uning susayishiga o'z xatti-harakati bilan sababchi bo'lgan hukmdorlarni jazolash shiori ostida amalga oshirila boshlanadi. Islom dini daxlsizligini muhofaza qilish, bu boradagi qonun-qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, uni tarqatish - Sohibqiron davlatining g'oyaviy bayrog'iga aylanadi. Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ul istibdodidan ozod qilishda, so'ngra buyuk

imperiyani barpo etishda bir yarim asr davom etgan g'ayridin mo'g'ullar hukmronligidan zada bo'lgan mintaqalar uchun o'sha davrda islom g'oyasining birlashtiruvchi kuchga aylanishi mumkinligini to'la anglagan holda harakat qiladi.

"Tajribadan ko'rib bildimki, - deb ta'kidlagan edi u, - davlat agar dinu oyin (qoida) asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi qudrati va tartibi yo'qoladi". Uning dini islom sohasida yuritgan siyosati din peshvolari tomonidan kattiq qo'llab- quvvatlandi, hatto ular Amir Temurga "bu yuz yillikda Muhammad dinining yangilovchisi shu kishi bo'lg'ay", degan fatvo ham berdilar. Amir Temur islomni g'oyaviy bayroq sifatida o'zining boshqa mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlarida hamisha bedaxl saqlashga, uni bosh masala tarzida har vaqt diqqat markazida tutishga qattiq e'tibor berib keldi.

U masalan, turk sultoni Boyazid Yiddirim bilan olib borgan yozishmalarida doimo uning g'ayridinlarga qarshi olib borgan kurashiga xayrixohlik bildirishni unutmagan, bu boradagi o'z nuqtai nazarini imkoni boricha kengroq tarqatishga xarakat qilgan. Boyazid Yildirimning Kemax qal'asini bosib olganiga qattiq e'tiroz bildirgan Amir Temur turk sultonidan uni darhol o'z egalariga qaytarib berishni talab qilar ekan, bu masala yuzasidan unga yo'llagan maktubida, jumladan, quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Uni (Kemax qal'asini) bizning gumashtalarimizga topshirasan, qolgan Rum mamlakati senga musallamligicha qolg'ay, agar u hududda (islom) diniga muxolif bo'lganlarga qarshi g'azot marosimini barpo qilsang, har nimaiki iltimos qilsang, qudratimiz yetgancha madad va yordamimizni darig' tugmaymiz, biz ham g'azot savobida senga sherik bo'lg'aymiz". Shundan sal oldin Qoraboqqa Amir Temur huzuriga kelgan turk elchilariga (taxminan 1402 -yil mart oyining boshlarida) Sohibqiron shunday so'zlarni aytadi: "Men tabiatan u tomonga yuzlanish va u mamlakatga lashkar surishni xoxlamayman. (Amir Boyazid) doimo faranglarga qarshi g'azot qilayotganligi sababli men faranglar quvvatlanib, axdi islomning kuchsizlanishini istamayman". Amir Temur yevropa davlatlariga yuborgan elchilariga qirollar bilan olib boriladigan muzokaralar uchun

keng huquqlar bergani holda, ularga diniy masalalar yuzasidan fikrlashishni mutlaqo man etgan.

Masalan, Amir Temurning 1402- yilda Farangiston qiroli Karl VI ga yoʻllagan maktubida shunday satrlarni oʻqiymiz: "Buyuk hukmdorlar va doʻstlar oʻrtasidagi ulugʻ ishlar hakida bir-birlarini ogoh etish odatiga boʻysunib, mazkur arxiepiskop Janni siz janoblarining huzuriga joʻnatdik, toki ul kishi bizning mamlakatimiz va hozirgi ahvolimiz, shuning birla, soʻnggi paytlarda bul oʻlkalarda sizning gʻanimlaringizga nisbatan sodir boʻlgan voqealar toʻgʻrisinda sizni xabardor etsinlar, batafsil soʻzlab bersinlar. Tagʻin ul zot sizlar bilan boʻlgan doʻstligimiz va ittifoqimiz, siz va sizning odamlaringizga xurmateʻtiborimiz hamda birodarligimiz ravnaqi yoʻlida shu kunlarda bajarilayotgan koʻpgina foydali tadbirlar haqida ham hikoya qilgʻaylar. Ul zotni ham sizning, ham bizning odamimiz tariqasinda tavsiya etmoqdamiz. Ul kishini diniy masalalardan tashqari boshqa barcha masalalarda ishonchli vakil deb tinglagʻaysiz. Ushbu maktubdagi ostiga chizilgan soʻnggi jumla bilan Amir Temur oʻzining musulmon imperiyasi hukmdori sifatida diniy masalalar yuzasidan muzokaralar olib borish niyati yoʻqligini bildirish bilan bir qatorda, nasroniy eʻtiqodga oid oʻz xizmatkorining (elchisining) bu sohada umuman hech qanday haq-huquqqa ega emasligini ham alohida qayd etgan.

Ayrim tadqiqotchilarning, masalan, I. I. Umnyakovning "bu narsa Amir Temur va uning aʻyonlarining fikri boʻlmasdan, arxiepiskopning oʻzi tomonidan maktubga qoʻshilgan", degan fikrini sira quvvatlab boʻlmaydi. Chunki elchi sifatida yuborilgan monax Jan bunday erkinlikka yoʻl qoʻyishi aql bovar qilmaydigan bir holdir. Amir Temurning islom dini himoyachisi sifatida yurgizgan ichki va tashqi siyosatining ifodasi tarzida bu jumla ataylab ana shu maktubning boshdanoq oʻrin olganligiga shubha boʻlishi mumkin emas. Amir Temurga boʻysunishni istamagan va undan qochib Boyazid Yildirim saroyida panohtopgan turkman sardori Qora Yusuf masalasida ham islom dini nuqtai nazaridan yondashilgan. Aslida bundan Amir Temur oʻz siyosiy va harbiy maqsadlarini

amalga oshirish uchun g'oyat zukkolik bilan foydalangan. Natijada Qora Yusuf masalasi uning bilan turk sultoni o'rtasidagi eng chigal muammolardan biri darajasiga ko'tariladi, chunki Sohibqironning bu boradagi talabini Boyazid bajarishdan bosh tortadi. Amir Temur Boyazidga yo'llagan qator maktublarida Qora Yusufni o'z yurtida musulmon qonun-qoidalarini oyog' osti qilganlikda, qaroqchilik yo'lga o'tib, Makkaga borayotgan hojilar karvonlarini talaganlikda ayblaydi va bunday shaxsning, Qur'on oyatlarida ko'rsatilganidek, og'ir jazoga mustahiq etilishi lozimligini ta'kidlaydi.

"Qora Yusuf yo'lto'sarlardan bo'lganligi va necha martalar hojilarni g'orat qilganligi, islom mamlakatlarida talon-toroj qilib fitna qo'zg'otganligi uchun, - deb yozgan edi Sohibqiron bu haqda Boyazidga yuborgan o'z maktublaridan birida, - umumxalq huzurida dorga osilishi kerak, toki o'zga mufsidlarga ibrat bo'lgay. Bu yerda ana shunday "dini islomni g'orat qilgan" bir kimsani o'z panohida saqlagan hukmdorning ham shu gunohga sherik bo'lishi, islom qonunqoidalariga xilof yo'l tutayotganligiga ham sha'ma qilib o'tiladi. Amir Temurning Misr mamluklari bilan olib borgan diplomatik yozishmalarida xuddi shu diniy masalalarni hisobga olgan holda sal boshqacharoq yo'l tutgani ko'zga tashlanadi. Gap shundaki, mo'g'ullar 1258 - yilda Bag'dodni egallab, Abbosiylar xalifaligiga xotima bergach, islom dunyosi (sunniylar) o'zlarining yagona ruhoniy rahnamolari - xalifalaridan judo etiladilar, o'sha paytlarda Bag'doddan Kohiraga kelgan qochoqlardan biri o'zini so'ngi xalifaning amakisi deb e'lon qiladi. Bu da'vo ko'p ham ishonchli bo'lmasada mamluklar islom dunyosida o'z siyosiy mavqelarini mustahkamlash maqsadida uni qabul qiladilar va shundan boshlab Qohirada Abbosiylarning vakillari mamluk sultonlari huzurida islom olamining bosh diniy rahnamosi sifatida qaror topadilar. Ular mamluk sultonlari uchun atrof mamlakatlarni qo'lga olishda ma'naviy tayanch vazifasini o'taydilar. Mamluk Beybars (1260-1277) davrida Afrika qitasidagi Liviya va Barka, so'ngra Nubiya Misrga qo'shib olinadi. Shuningdek, mamluk sultonlari Makka va Madina joylashgan Hijoz ustidan ham o'z hukmronliklarini o'rnatadilar.

Amir Temur Misr bilan bo'lgan o'z muloqotlarida ana shu faktlarni e'tiborga olishga majbur edi. U Bag'dodni qo'lga kiritar ekan, Misr bilan o'z sarhadlarining tutashganini hisobga olib, Barquqqa 1393 - yil boshida "podshohona tuhfa va hadyalar bilan" "Sova shahrining mashoyixlaridan va qadimiy xonadonlaridan bo'lgan aslzoda va sharif bir kishini elchi sifatida" yo'llaydi. Amir Temur Misr sultoniga yozgan maktubida: "hamsoyalik haqqiga rioya qilib, do'stlik eshigini ochaylik, toki bundan buyon har ikki tomondan elchilar borib kelib tursinlar, har ikki mamlakat savdogarlari uchun yo'l ochib qo'yilsin va bu ma'ni xalq osoyishtaligiga va yo'llarning eminligiga sabab bo'lsin", degan so'zlarni bitgan edi. Ammo elchilik Shom hududiga yetgach, hech qanday sababsiz elchi va uning hamma mulozimlari tig'dan o'tkaziladi. Ayni vaqtda, Barquqning farmoniga muvofiq, o'zaro to'qnashuvda qo'lga tushgan Amir Temurning yaqin a'yonlaridan biri Otlamish Qohiraga olib ketilib, bandi zindon etiladi. Bu vaqtda Amir Temur ochiqdan-ochiq Barquqqa qarshi harbiy kuch bilan tazyiq ko'rsata olmas edi.

U buyuk strateg sifatida buning uchun qulay fursat yetilmaganini yaxshi bilardi. Chunki Barquq Amir Temurga qarshi Boyazid Yildirim bilan ittifoq tuzgan, agar o'zaro muhoraba boshlansa, uning an'anaviy sherigi Oltin O'rda ham Temur lashkarlariga orqadan zarba berishi mumkin edi. Shuning uchun Amir Temur o'ziga yetkazilgan ozorni vaqtincha orqaga tashlashga majbur bo'ladi va sulton Barquqni faqat qattiq ogohlantirish bilan cheklanadi. Shomiyning yozishicha, u Rum chegaralaridan o'tib, Malotiyaga kelganda Misr sultoniga yana elchi yuboradi va "Men begona lashkarni Shom yerlariga kiritishni xohlamayman, sizlar bundan ortiq jahl maqomiga qadam bosmanglar, amir Otlamishni tezlik bilan yuboringlar, toki men elchini o'ldirganingiz gunohidan o'taman va diyoringizni salomat qoldiraman", degan mazmunda maktub yo'llaydi. Ammo bu maktubga ham ijobiy javob bo'lmaydi. Bu orada Amir Temur 1394 -yilda to'satdan o'z suvoriylari jilovini orqaga burishga farmon beradi. Buni ko'pgina g'arb tadqiqotchilari "Temur 1394 - yilda mamluklar ixtiyoridagi Suriya yerlari tomon yo'lga chiqqandi. Ammo u mamluk sulton Barquq qo'shinidan qo'rqib, birdan

sharqqa chekinishga majbur bo'ldi", deb izohlaydilar. Aslida Amir Temur, yuqorida ta'kidlanganidek, bu vaqtda Misrga qarshi mahoraba maydoniga chiqmoqchi emas edi. To'qnashuv uchun yetarli va asosli sabab bor edi, ammo qulay fursat va sharoit yo'q edi. Shuning uchun ham u mamluklar bilan bo'ladigan jangni orqaga tashlab, Hindiston safariga o'tlanadi. U Hindiston yurishidan qaytgach, mamluklar hukmronligidagi sarhadlarga o'zi uchun qulay bo'lgan yangi vaziyatda yurish boshlaydi, tez orada yirik shaharlardan Halab va Damashqni qo'lga kiritadi. Misr sultoni Faraj tor-mor qilinib, bu joylarni o'z holiga tashlab Qohiraga qochadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Misr mamluklariga qarshi uyushtirilgan harbiy tadbir uchun Sohibqiron ixtiyorida yetarli bahona bor edi: uning do'stlik mujdasi bilan sulton Barquqqa yuborilgan elchilari xiyonatkorona o'ldirilgandi. Barcha xalqlar tomonidan qabul etilgan va amal qilinib kelingan qadimiy udum - "elchiga o'lim yo'q" udumi buzilgandi.

Amir Temur "Tuzuklari"da "Qaysi ishni chora-tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim" degan ibora bitilgan. Bu narsa uning diplomatiyasida asosiy o'rin tutganligini ko'ramiz. Bu diplomatik yo'l Turonzaminni bir yaxlit davlat sifatida birlashtirishda katta ijobiy natijalar berdi. Aks holda ko'plab qon to'kilgan, mo'g'ullarning 150 yil davom etgan zulmidan keyin endi qad rostlab kelayotgan o'nlab shahar-qishloqlar va sug'orish inshootlari qaytadan tiklandi. Diplomatik yo'l bilan o'z ta'sir doirasini kengaytirish usulini Amir Temur o'z faoliyatining ikkinchi bosqichi, ya'ni jahongirlik davrida ham keng qo'llagan. U ayniqsa, kichik hukmdorlarga jangu jadalga kirishmaslikni, yuqori hokimiyat sifatida uni tan olgan holda o'z yurtida avvalgidek hukmronlik qilaverishni tavsiya etgan. Manbalardan ma'lumki, ko'p hollarda bu siyosat muvaffaqiyat qozongan. Albatta, bunday hukmdorlarning Amir Temur takliflarini qabul qilishi zamirida Turondagidek birlashish zarurati emas, balki noilojlik asosiy omil bo'lgan. Shu bilan ular, cheklangan bo'lsada, o'z hukmronliklarini saqlab qolganlar. Sohibqironning xalqaro yozishmalari asosan fors tilida olib borilgan. Chunki bu til o'sha paytda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining nafaqat o'zaro,

balki boshqa mintaqa davlatlari bilan olib borgan muloqotlarida rasmiy xalqaro aloqalar vositasi sifatida tan olingan va diplomatik yozishmalar ko‘pincha ana shu tilda olib borilgan. Amir Temur bu an'anaga amal qildi, lekin o‘z xatlarini "Amir Temur so‘zim" yoki "so‘zimiz" degan turkiy kalima bilan boshlashni rasmiy udumga aylantirdi. Buni Ovrupo mamlakatlariga yo‘llangan yozishmalarda ham ko‘ramiz.

Hatto Amir Temur maktublarining lotincha tarjimalaridan birida "so‘zimiz" kalimasi Temurning rasmiy unvonlaridan biri bo‘lsa kerak, degan andisha bilan ag‘darilmasdan "so‘zimiz" deb yozib qo‘ya qolingani nazarga tashlanadi. Amir Temur diplomatiyasiga xos xususiyatlardan yana biri shuki, u rakiblariga yozgan xatlarida odatda sharqona odob-axloq va asrlar mobaynida qaror topgan udumlardan chekinmagan. Bu haqda yuqorida Sohibqiron va Sulton Boyazid o‘rtalaridagi yozishmalardan misollar keltirib o‘tgan edik. Amir Temur boshqa hukmdorlarga elchilar yuborar ekan, ularga yuklatilgan vazifaning ahamiyatiga qarab o‘z nomidan ish ko‘ruvchi bunday odamlarning e‘tiborli, el-yurt ichida tanilgan, aql va zakovatli bo‘lishiga katta e‘tibor bergan.

Uning a‘yonlari ham ana shunday kishilardan iborat bo‘lgan. Buni italiyalik tojir Mignanelli asarida keltirilgan quyidagi satrlar to‘la isbotlaydi: "Temurning kishilari, - deb yozadi u, - juda ham ko‘rkam edilar, ular nasli-nasabiga ko‘ra ham ulug‘vor ko‘rinardi. Ular oliy xususiyatli, farosatli, mashhur, yoshiga qarab mansabdor bo‘lgan kishilar edi. Temurning shunday odamlari bor ediki, ular arab, yunon, hibru (yahudiy) va boshqa kator tillarni bilardilar, osmon ilmi, geometriyadan mashhur edilar". Sohibqiron elchilarni ham ana shunday kishilardan tanlaganligiga shubha qolmaydi. Manbalarda keltirilgan Amir Temur diplomatik aloqalariga doir materiallar shundan dalolat beradiki, Sohibqiron elchilarni tanlashda g‘oyat ehtiyotkorlik ko‘rsatgan, o‘z a‘yonlari ichidan eng sadoqatli, bilimdon va hushyor kimsalarnigina bu ishga loyiq ko‘rgan. Bu o‘rinda Sohibqiron, fikrimizcha, to‘la-to‘kis qadimiy turkiy diplomatiyaga xos bo‘lgan urf-odatlariga qattiq rioya qilgan. U, shubhasiz, bu soha uchun g‘oyat qimmatli

sanalgan, XI asrda bitilgan va qadimiy diplomatiya sir-asrorlarini o'zida ifoda etgan turkiy tildagi qomusiy asar - "Qutadg'u bilik" bilan yaxshi tanish bo'lgan.

Amir Temur tashqi siyosatiga o'z xayotini bag'ishlagan uning sadoqatli elchilari orasida Ispaniyaga borib, u yerda Amir Temur elchisi sifatida ma'lum muddat turgan va Kastiliya elchilari bilan Samarqandga qaytgan Muhammad Al-Keshiy singari zukko diplomatlar bor edi. Amir Temur saltanatining mashhur diplomatlaridan biri - Muxammad Al-Keshiy haqida ma'lumotlar kam uchraydi. yevropa mamlakatlariga Amir Temur musulmon diplomatlardan faqat AlKeshiyini yuborishni lozim topgan. Bu narsa Al-Keshiyning yuksak madaniyatli va savodli bir kishi bo'lishi bilan bir qatorda uning ma'lum darajada yevropa tillaridan, hech bo'lmaganda uning birontasidan xabardor bo'lganligini bildiradi. U Ispaniyaga yetib borib, uning qiroli Genrix III huzurida Sharqning buyuk imperatori - Amir Temurning shaxsiy vakili sifatida juda katta hurmat-e'tiborga sazovor bo'ladi, qirol saroylaridagi yig'inlarda katta obro' qozonadi. Genrix III unga Rui Gonsales de Klavixo rahbarligidagi o'z elchilarini qo'shib, hurmatehgirom bilan Samarqandga qaytaradi. Shu bilan birga, Amir Temur yevropa mamlakatlari bilan olib borgan diplomatik aloqalarida nasroniy rohiblar xizmatidan ham keng foydalangan. Sohibqiron bilan Vizantiya o'rtasida, Fransiya hamda Angliya bilan bo'lgan uning muloqotlarida katta xizmat ko'rsatgan monaxlar Fransisko va Fransisko Sadru hamda Sultoniyaning arxiepiskopi Janlar Amir Temurga katta xizmat ko'rsatgan diplomatlardan edi. Bu boradagi yozishmalarda ta'kidlanganidek, Sohibqiron o'z xizmatida bo'lgan xristian e'tiqodidagi ana shu kishilarga to'la ishongan va ularning faoliyati haqida hech qachon shubha bildirmagan. O'z navbatida, ular ham Amir Temurga sidqidildan xizmat qilganlar. 2.Amir Temurning xalqaro munosabatlarda olib borgan iqtisodiy siyosati Qudratli buyuk davlat barpo qilgan Amir Temur bunday davlatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishini g'alabalarga olib keluvchi harbiy yurishlar bilangina ta'minlab bo'lmasligini yaxshi his etardi. Movarounnahrning markazida, strategik jihatdan qulay joylashgan Samarqand shahrini poytaxt sifatida tanlar ekan, u Buyuk Ipak yo'lida joylashgan, Uzoq

Sharqni musulmon dunyosi hamda yevropa bilan bog'lovchi bu shahar ulug'vor inshootlari, dabdabali saroylari, saroy ahlining tantavor kiyimlari bilan mehmonlarni hayratga solishi lozim, deb hisoblardi. Bunga Movarounnahrni iqtisodiy va siyosiy hayot markaziga aylantiribgina erishish mumkin edi.

Buning uchun esa G'arb mamlakatlari bilan Xitoy o'rtasida o'tmishda mavjud bo'lgan asosiy karvon yo'llarini tiklash va jonlantirish zarur edi. Janjallar va o'zga chetdan tez-tez bo'lib turadigan bosqinlar tufayli Oltin O'rdadan Sharq mamlakatlariga olib boradigan karvon yo'llari inqirozga uchragan edi. Egey va O'rta dengiz sohillaridan to Xitoy chegaralarigacha, Dashti Qipchokdan Arabiston dengizigacha bo'lgan oralikda ulkan saltanat barpo etib, Sohibqiron, avvalo Buyuk Ipak yo'lining karvon so'qmoqlarini bosqinchilar hujumidan muhofaza qildi. G'arbiy Eron, Iroq, Suriya va Sharqiy Anatoliyada bosqinchilar ayniqsa ko'p edi. Bungacha ana shu mamlakatlardan o'tadigan yo'llar xavfli bo'lganligi uchun nafaqat savdo karvonlari qatnovi, balki musulmonlar uchun farz hisoblangan haj amalini bajarish ham amri mahol bo'lib qolgan edi. Buyuk Ipak yo'lining yopilib qolgan karvon so'qmoqlari Amir Temur iqtidori sharofatidan qayta tiklanishi tufayli Movarounnahrda turli mamlakatlardan sarmoya va mol oqib kela boshladi. Bunda, birinchi navbatda, Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Aksikent, Andijon va boshqa shaharlaridan chiqqan savdogarlar faol qatnashdilar. Savdo-sotiqning jadal rivojlanishi bu mintaqa taraqqiyotini ko'p jihatdan ildamlashtirdi. Xazina to'la boshladi.

Amir Temur imkon qadar ichki savdoga ham, tashqi savdoga ham qulay sharoit yaratdi. O'rta asrlarda savdo bilan diplomatiya uyg'unlashib ketgan edi. Savdo va diplomatiya munosabatlarini kengaytirish maqsadida Amir Temur karvon yo'llarini obodonlashtirdi. Manzillar va karvonsaroylar barpo etdi. U poytaxtga yoki harbiy o'rduga ketayotgan savdogar va elchilarning beto'xtov yurishi uchun sharoit yaratilishini talab qilardi. Shu maqsadda karvon yo'llarida joriy etilgan yomchilik (aravakashlik) xizmati harbiy intizomga bo'ysundiriddi. Chunonchi, har 30 chaqirim masofada bir necha yom otlari bilan yomchi

(aravakash) turgan. Amir Temur davlatining barcha hududlarida qattiq intizomga bo'ysundirilgan aniq va tezkor yo'l-aloqa xizmati joriy qilingan.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, bunday xizmat Amir Temur va Temuriylar davlatining ildam taraqqiyotiga olib keldi. Uzoq mamlakatlardan karvon yo'llari bo'ylab kelgan savdogarlar o'zlari bilan faqat mollargina emas, balki boshqa mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli, turmush tarzi, odatlari va dini haqida yangi-yangi xabarlar keltirardilar. Ular ayni vaqtda madaniyat tarqatuvchilar ham edilar, chunki qo'lyozma kitoblar, qog'oz olib kelishar, boshqa xalqlardan eshitgan hikoya, afsona va rivoyatlarni so'zlab berardilar. O'z navbatida, mahallii savdogarlar uzoq yurtlarda bo'lib, jug'rofiy tasavvurlarini kengaytirar, safardan qaytib kelib, o'z ishlari va sarguzashtlari haqida hikoya qilib berardilarki, ularni munshiylar yozib olishardi. Savdo shu tariqa madaniyat va adabiyotning rivojini rag'batlantirardi.

Amir Temur saroyida elchilarni qabul qilish marosimlari O'rta Osiyo hududida ming yilliklar davomida hukm surib kelgan daplatchilik tizimi mavjud bo'lganligi, davlatchilikning o'ziga xos barcha xususiyatlari, shu jumladan tashqi siyosati, diplomatik aloqalari, elchiliklar bordi-keldilari uzluksiz davom etib kelganligi hozirgi vaqtda hech kimda shubha uyg'otmaydi, albatta. Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash, hukmdorlarning o'zaro muloqotlarini barqaror etish bilan ishonch hosil qilish, mamlakatlarning ichki va tashqi holatidan xabardor bo'lish, ikki o'rtada hamjihatlik o'rnatish orqali fuqarolarning tinchligi va osoyishini barqaror etish va boshqa xil muammolarni bartaraf qilish - elchilik aloqalarining asosiy maqsadlari hisoblangan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun, o'z hukumatining siyosati va niyatlarini tushuntirish va unga ishontira olish uchun elchilarning shaxsiyatiga katta ahamiyat berilgan va ular eng yetuk insonlar orasidan tanlanganlar. Davrning dono va zukko zotlari hukmdorlar uchun bu borada qo'llanmalar yozib, chet ellarga yuborilajak elchilarni tanlash, tayyorlash va ularning faoliyati tamoyillari va me'yorlarini belgilab berganlar. Bu haqda yuqorida to'xtab o'tilli. Manbalardan

shu narsa ma'lum bo'ladiki, O'rta Osiyo davlatlarida elchilarni qabul qilish tartib-qoidalari qadim zamonlardan oq hukmdorlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan va bu masalaga har vaqt jiddiy munosabatda bo'lingan. Diplomatiyamiz tarixiga oid ko'plab asarlarda uning yul-yo'riklari atroflicha tahlil etilgan. Yuqorida eslatilgan Nizomulmulkning XI asrda bitilgai "Siyosatnoma"sida bu haqda, jumladan quyidagilarni o'qiymiz: "Agar atrof mamlakatlardan kelgan elchilar hukmdor saroyiga yetgunlaricha, garchi ularning kelishlari haqida hech qanday xabar olinmagan taqdirda ham ular etiborsiz qoldirilsa va zudlik bilan xabar yetkazilmasa - bu hol davlatdagi tartibqoidalarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi tarzida baholanadi. Sarhadlardagi ma'murlarga uqtirib qo'yilishi lozimki, ular elchilarga darhol ishonchli bir vakilni kuzatuvchi etib tayinlasinlar va bu vakil ularni ma'lum bir manzilga (shaharga) yetkazib qo'ysin va u yerdagi ishonchli mulozimga topshirsin, tokim u ham elchilarni navbatlagi manzilgacha kuzatib borsin. Bu tartib elchilar hukmdor saroyiga yetgunlaricha davom etsin.

Har bir to'xtamda elchilarni ziyofat qilib, ularni xushfe'llik bilan kutish, keyingi manzilgacha zarur oziqovqatlar bilan ta'minlash lozim, chunki ularga nisbatan ko'rsatilgan har bir yaxshilik yoki yomonlik qabilidagi xatti-harakatlar hukmdor tomonidan amalga oshirilgan tadbir sifatida baholanishini unutmashlik darkor". Amir Temur saroyida chet ellik elchilarni qabul qilish marosimi elchilar chegaradan o'tib, uning mulklari hududiga qadam qo'yishlaridan boshlanar edi deyish mumkin. Mamlakat bo'ylab shunday tartib o'rnatilgan ediki, elchilar yo'lidagi shahar va qishloqlarning hokimlari ularni kutib olar, aholi uylaridan gilamlar chiqarib joy solar, dasturxon yozib mehmonnavozlik ko'rsatar, tunash uchun munosib joy berar va yo'lida davom ettirish uchun ot-ulov bilan ta'minlashar edi.

Bu yerning odati shunday, deb yozadi Ispapiya (Kastiliya) qiroli Genrix III ning Amir Temur saroyiga yuborgan elchisi Rui Gonsales de Klavixo. Agarda Amir Temur kimniki biror yerga yuborsa, balki uning qoshiga kimdir kelayotgan bo'lsa, shu tarzda kutib olishadi va har kuni yangi ot bilan ta'minlashadi, deb

davom etadi elchi. Bu otlar aholi bor yerlarda ham, yo‘q yerlarda ham amirning buyrug‘iga ko‘ra tayyor turadi, ularga qaraydigan odamlar tayinlanadi. Aloqa tizimida o‘rnatilgan bunday muntazam tartib nafaqat elchilarga qulay sharoit yaratadi, balki AmirTemur bepoyon mulklarining har chekkasidan xabardor bo‘lib turadi. Ispaniya elchilari Amir Temur davlatidagi yo‘llarda o‘rnatilgan tartibintizomdan bahramand bo‘lib, Samarqandga yetib kelganlarida ular Samarqandga yaqin Guliston bog‘iga joylashtirilib, bir hafta davomida mehmondorchilikda dam oladilar. Ispaniya elchilari g‘oyat yuksak ehtirom va tantana bilan qabul qilinadi va amir bir necha bor Bog‘i chinor, Bog‘i nav, Bog‘i dilkusho va boshqa dargohlarda ular sharafiga ziyofatlar beradi, ular amirning nevaralari to‘ylariga taklif etiladilar, bu marosimlarda elchilarga sarupolar kiydiriladi, boshlaridan tangalar sochiladi, sovg‘alar beriladi va boshqa turfa xil e‘tibor timsollari ko‘rsatiladi. Elchi xotiralarida mazkur marosimlarda erkaklar qatorida ayollar ham ishtirok etganligi, ularning o‘zlari ham u yoki bu munosabat bilan ziyofatlar berganligi va ularga chet ellik elchilar ham taklif etilganligi haqida ma'lumotlar beriladi.

Amir Temur saroyida chet ellik elchilarni kutib olish marosimida asosan amirning avlodlari, mirzalar, nevaralarining faol ishtiroki ko‘zga tashlanadi: elchilarni kutib oluvchilar ham, ularni amir huzuriga salomga olib keluvchilar ham, chet el hukmdorining maktubini qabul qilib olib, amirga topshiruvchilar ham amirning yaqinlari - mirzalar edilar. Elchi olib kelgan maktubni topshirish marosimi ham o‘ziga xos tarzda o‘tadi: nevaralardan biri uni baland ko‘tarib Amir Temur huzuriga boradi va elchilar amirga ta'zim qilganlaridan so‘ng maktub unga topshiriladi. U xatni olib o‘zi ochadi va hozir emas, yolg‘iz qolganda o‘qimoqchi ekanini bildiradi. Elchilar amirga ta'zim bajo keltirgach va savol-javoblar tugagach, mirzalar ularni hukmdor o‘tirgan supaga olib borib, uning o‘ng tomoniga o‘tqazadilar. Amirning buyrug‘i bilan ular Xitoy elchisidan yuqori o‘tqaziladi. Bu kabi diplomatik marosimlarda aytilgan har bir so‘z va bosilgan har bir qadam o‘ziga xos ma'noga ega bo‘lib, shu o‘lkaning milliy qadriyatlarini, urfodatlarini va

ichki hamda tashqi siyosatini namoyish etish uchun foydalanilgan. Elchilarning amirdan oldin qariya qoshiga, soʻngra nevaralar oldiga salomga olib borilishida ham muayyan bir ma'no yotadi - bir tarafdin, keksalarga hurmat va yoshlarga izzat bu oʻlkaning odati ekanligini namoyish qilsa, ikkinchi tarafdin, yosh avlodga - kelajak hukmdorlariga ham munosib hurmat koʻrsatish lozimligi, davlatning davomiyligini e'tirof etish va shu bilan birga diplomatiyaning nozik qonun-qoidalarini ularga yoshligidan singdirib borish, chet elliklar bilan muloqotga tayorlash maqsadlari nazarda tutilgan boʻlsa, ajab emas. Amir Temur buyrugʻi bilan Ispaniya elchilarining Xitoy elchisidan yuqori oʻtqazilishi misolida bu davlatning tashqi siyosati yorqin ifoda topadi. Bu omil Amir Temurning yangi- yangi davlatlar bilan diplomatik aloqalar oʻrnatishga katta ahamiyat berganini koʻrsatsa, Xitoy bilan aloqalarning tarangligini ham namoyish etar edi. Demak, elchilarni qabul qilish marosimini davlatlararo aloqalarning xarakteri aks etgan oyna desa ham boʻladi.

2.3. A.Temur obrazining izlanish eskizlari


Tasviriy san'atda buyuk siymolarni tasvirlash rassom uchun katta mas'uliyat yuklaydi. Rangtasvirchi M.Nabiyev ham oʻz faoliyati davomida tarixiy shaxslar portretini yaratish, tarixiy voqealarni tasvirlashga intilgan. Tarixiy shaxslar timsolini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan oʻzining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar qiyofasini yuksak badiiy saviyada yarata oladi.

Rassom Amir Temurdek buyuk shaxsning portretini qanchalik masuliyatli hamda murakkab ekanligini his qilgan holda bu ulugʻ va sharafli ishga ellik yil vaqt sarfladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib bu bitiruv malakaviy ishni ham masuliyat bilan bajarishga harakat qilindi. Bir qancha eskizlar ishlandi, rassom-pedagoglardan maslahatlar olib, Amir Temur siymosini tasvirlashga harakat qilindi.









XULOSA

Buyuk jasorat sohiblari bo'lgan bunday alloma zotlar dunyoning qayerida yashamasin, ezgulik va ma'rifat yo'lida doimo odamlarga ibrat bo'lib kelgan.

Temurning Osiyo, umuman jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o'rni haqida xulosa qilib, quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizdir: Amir Temur Markaziy Osiyoni mo'g'ullar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni uyushtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yo'naltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqning bu sohadagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqishiga ulkan hissa qo'shgan sarkardadir; Amir Temur ko'p yillar davomida mustamlaka bo'lib, chet ellik hukmdorlarga bo'ysunib kelgan Movarounnahr va Xurosonda o'z yurti, xalqining kuch-qudratiga tayangan mustaqil va yagona davlat barpo etadi;

Bundan olti yarim asr oldin yevrosiyo qit'asi markazida tartib o'rnatish, beqarorlikni tugatish, tinch va xavfsiz rivojlanish asoslarini yaratish maqsadida ulkan bir davlat barpo etildi. Aniqrog'i, 30 avlod oldin Amir Temur (o'sha vaqtdagi beqaror dunyoda yagona va markazi muqaddas Samarqand shahri bo'lgan) bu ulkan davlatni barpo etdi. U yurgizgan siyosatning muammo va yo'nalishlari mohiyatan hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlarida ham ma'lum ma'noda saqlanib qolmoqda. O'sha davr bilan biz yashab turgan hozirgi vaqt o'rtasida farq unchalik ham ko'p emas: qo'shni mintaq va davlatlarning bir qismi tahdid o'chog'idan barqaror va ishonchli qo'shnilarga aylangan bo'lsa, boshqalari aksincha, tahdid o'chog'i bo'lib qoldi; uchinchilari esa o'sha vaqtdagi kabi hozir ham xavf manbai bo'lib turibdi; tahdidlar qutubi o'rin almashgan, xolos. Amir Temur dunyo siyosiy xaritasini o'zgartirgan sarkardalardan hisoblanadi. Qanday qilib? Birinchidan, u yevrosiyo markazini «qora tuynuk»dan (tarqalib ketgan Chingizxon avlodlari imperiyasi o'rnida), betartib makondan, «barchani urushi barchaga qarshi urushdan» tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot zonasiga aylantirdi; Ikkinchidan, u buni tarixan juda qisqa muddatda amalga oshirdi: Amir Temurning hayoti (1336-1405) Angliya bilan Fransiya o'rtasida bo'lgan Yuz yillik urushning (1337-1453) yarmiga teng bo'ldi, imperiyasini esa bir yarim avlod umri davomida

– 1370-1400 yillar orasida yaratdi va mustahkamladi; Uchinchidan, u barcha yov kuch markazlarini o‘z imperiyasining periferiyalari–Shimoliy, Janubiy va G‘arbiy Osiyoga bo‘ysindirdi. To‘rtinchidan, yevropa davlatlari Amir Temur bilan ittifoq tuzishga harakat qilishdi. Angliya ham, Fransiya ham Usmoniylar imperiyasiga Boyazidga qarshi uni o‘z tomoniga og‘dirishga harakat qildi. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Amir Temur davlati qit‘adagi yagona real buyuk davlat deb tan olindi. Biroq uning zamondoshlari qanday qilib yigirma yil ichida yo‘q joyda shunday ulkan davlat paydo bo‘lishi sababini tushunmagan bo‘lsa ham kerak. yevrosiyo imperiyasining amal qilish mexanizmlari va uning doimiy g‘alabalari sababini o‘sha zamondosh undan ham kam fahimlagan bo‘lsa ajab emas. Xalqaro munosabatlarda Amir Temur davlatining rolini ko‘rib chiqar ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo‘lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o‘tish g‘oyatda muhimdir. Shunday qilib, Amir Temur davrida o‘zbek davlatchiligi tarixida eng yorqin sahifalar bitildi. Mazkur yillarda davlatimizning, umuman o‘zbek xalqining ichki va tashqi siyosatidagi imkonlari, salohiyati to‘la-to‘kis namoyon bo‘ldi. Mamlakatimiz jahonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylandi. Davlatimiz kuch-qudratiga yevropadan Xitoyga qadar ulkan hududdagi davlatlar tan berdi. Shu bilan birga, ming afsuski, XVI asrda shayboniylar va kelgusida hokimyatni boshqargan sulolalar ushbu muvaffaqiyatlar va davlatchilikdagi taraqqiyot darajasini saqlab qololmadilar.

Yukoridagilarni inobatga olib, olib borilgan ilmiy izlanishlarning maqsadlaridan biri uning pedagogik ahamiyatini ko‘zlab tadqiqot olib boorish edi. Ta‘kidlab o‘tish joizki, tadqiqotning boshida qo‘yilgan maqsad va vazifalar bajarilishi haqida imkon qadar ma‘lumot berildi. Ilmiy ish rejasiga kirgan barcha masalalar organildi.

Xulosa oxirida BMIning pedagogik ahamiyatini ta‘kidlab o‘tish lozim. Hukumatimizning madaniyat va san‘atga qaratilgan siyosati sharofati bilan bugungi kunda an‘anaviy san‘at ustalariga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan

yosh pedagog – rassom yetishtirishda ko'p ishlar qilinmoqda. Tasviriy san'at shunday o'ziga xos san'atki, unda an'analarning saqlanib qolishi juda muhimdir. Shuning uchun yosh pedagog – rassomlarning tarbiyalashda tasviriy san'atning boy tarixidan foydalanish lozim. Ushbu bitiruv malakaviy ishdan ulg'ayib kelayotgan yosh rassomlar Buyuk siymolar tarixi, ularni tasviriy san'at ijodiy kompozitsiyasida tasvirlash haqida bilib olishlari va yosh pedagog – rassomlarga o'z ustida ishlash uchun yordam berishi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va maruzalari

1.1. Shavkat Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2016

1.2. Shavkat Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O‘zbekiston 2016

1.3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T.: «Sharq», 1999.

1.4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008.

II. Kitoblar va maxsus adabiyotlar

2.1. Xayrullaev M.M. "O‘zbek diplomatiyasi tarixidan". – Tosh., 2003

2.2. Nizomiddii Shomiy. Zafarioma. T., O‘zbskiston, 1996.

2.3. Amir Temur jahon tarixida. Ilmiy guruh rahbari N. Habibullaev. –T.: Sharq, 1996.

2.4. Bo‘riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. –T.: O‘zbekiston, 1997.

2.5. Lyus'en Keren. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan B. Ermatov tarjimasini. – T.: Ma'naviyat, 1999.

2.6. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – T.: Fan, 1968.

2.7. Xolbekov M. Amir Temurning yevropa qirollari bilan yozishmalari. – Samarqand, 1996

2.8. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. B. Ahmedovning ilmiy tahriri ostida. –T.: O‘qituvchi, 1996.

- 2.9. Giyasaddin Ali. Drevnik poxoda Timura i Indiyu. –M.: Izdatel'stvo vostochnoy literatury, 1958.
- 2.10. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoib al-Maqdur fi tarixi Taymur(Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)). I-II kitoblar. Arab tilidan U. Uvatov tarjimasini. –T.: Mehnat, 1992.
- 2.11. Rui Gonsales de Klavixo. Drevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406). Perevod so staroispan'skogo I. S. Mirokovoy. –M. Nauka, 1990
- 2.12. Temur Tuzuklari (o'zbek, ingliz, fransuz t.). Forschadan A. Sog'unliy va H. Karomatov tarjimasini. Ingliz tiliga M. Devi tarjimasini. Fransuz tiliga L. Langle tarjimasini. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996
- 2.13. Komaroff L. The epigraphy of Timurid coinage: Some preliminary remarks. // American Numismatic Society Museum Notes, vol. 31, 1986, pp. 207-232.
- 2.14. Hinz W. Herat, eine timuridische Hauptstadt, Graz, 1977.
- 2.15. Togan A. Z. V. Buyuk turk hukumdari Sahruh / Istanbul Universiteti, Edeliyat Fakuitiesi. Turk Dili-ve Edeliyat Degrisi III, 1949, pp. 520-538.

Internet saytlari

ziyonet.uz

uza.uz/oz/society

www.vto.uz

tashkent.uz/uz/artic/

muday.uz/uz/vistavki/

www.ziyouz.com kutubxonasi

ILOVALAR









